

I

Voqea yuz bergan kunning ertasiga ajralishmoqchi bo'lishdi. Butunlay. Shundoq, ixtiyoriy ravishda. Albatta bunday qarorga darhol kelishgani yo'q, balki qariyb yigirma yillik umr masofasini bosib o'tishgandi.

Aytgancha, qahramonlarimiz "Orzumandlar" qissasini o'qigan kitobxonlarimizga tanish. O'sha asarda "Shavkatning tog'asi Rustam qaylig'i Risolatni ana shunday toshqinlarning bir galgisida beshafqat to'lqinlar o'z domiga tortmoqchi bo'lgan vahshiy girdob qa'ridan olib chiqqan" degan jumla bor. Qissa xotimasida mavzuga keyinroq qaytish borasida andak shama ham qilib o'tilgan edi, biroq men Bobur xalqaro ilmiy ekspeditsiyasi safarlari va ular haqida xotiralar yozish bilan andarmon bo'lib, boshqa ijodiy yumushlardan ancha yiroqlashib qolgandim. So'nggi voqeani eshitgach, sobiq qahramonlarim bilan qiziqdim. Qudrat (Rustamning pochchasi) nomzodlikni bir amallab himoya qilibdi. Toshkentdagi qaysidir ilmiy-tekshirish institutida ilmiy xodim ekan. Tog'asi bilan Tegirmonboshida yashayotgan Shavkat o'rta maktabni bitirib ota-onalari Qudrat va Habiba yoniga jo'nabdi. Politehnika universitetida yaxshi o'qigan ekan, o'sha dargohga ishga olishibdi. Rustam o'zimizga kel, deb ancha o'tinibdi, ammo dadasi "Qishloqda o'smaydi, o'sadigan muhit ham yo'q" deb, ko'nmbadi. Habiba, garchi ukasiga achinsa-da, erining fikrini yoqlabdi. Shavkatning o'ziga ham bir vaqtlar moslasholmagan shahar hayoti yoqib, tog'asi, kelin ayasidan uzr so'rabdi, ozroq ishlab ko'raychi, balki keyinroq viloyatga qaytarman, deb, ularni ovutibdi. Risolatning ikkinchi homilasi, uchinchi, to'rtinchilari ham bo'yidan tushib ketibdi, qisqasi, bolalik bo'lisholmabdi. Juvon ruhan ezilganidanmi, yuragi o'qtin-o'qtin bezovta qila boshlagach, yoz oylarini Qoradaryoning o'rmon bilan tutash sohilida o'tkazishga kelishishibdi. Kech kuzdan ko'klamgacha hamma uy-uyida bo'lib, uncha bilinmaydi, yozda esa ko'cha to'la bola... Risolat ularga qarab eziladi. Buning ustiga xotin-xalaj kechqurunlari hovlilari orqasidagi xoda-o'tirg'ichga qaldirg'ochday terilib, laqillashga tushishadi. Ularning ikkidan bir gapi o'g'il uylash, qiz chiqarish, kim sandig'iga nima sep tashlagani xususida bo'ladi.

Shunga qaramay, boshda Risolatni unatish ancha qiyin kechibdi. U bir dugonamni boshiga yetgan, o'zimniyam narigi dunyoga olib ketishiga bir bahya qolgan o'sha yovuz daryoga tikilib o'tiramanmi, deb ancha taysallabdi. Rustam: daryoning u yillardagi vajohatidan, dahshatidan asar ham yo'qligini bilasiz-ku, eng asosiysi, do'xtirlar aytganday, iqlim almashtirish uchun uzoq joylarga borolmaymiz, bunga sharoit ham, imkoniyat ham chatoq, daryo bo'yi esa qulay, ham uyimizga juda yaqin, istagan paytda kelib ketaveramiz, deb arang xo'p degizibdi. Rostdan ham tepada suv ombori qurilgach, daryoning eni bir chaqirimdan ziyod o'zanining uch-to'rt yerida egri-bugri shaldirama soylar hosil bo'lgan, faqat ko'klamda, yomg'ir mavsumida bir oz ko'payardi-yu, burungiday pishqirib, ko'pirib, qirg'oqlarga xavf-xatar solib oqadigan suv odamlarning tushiga ham kirmay qo'ygan edi. Rustamning u yoqqa intilishining boshqa sababi ham bor edi keyingi mahallardagi uning asosiy mashg'uloti, tirikchilik vositasi baliqchilik edi. (Boyaqishning hunari, kasbi, durustroq ilmi ham yo'q-da). Kuz, bahor oylarida, hatto qishda ham to'r, qarmoq, savat kabi vositalar bilan baliq tutib sotardi. Yozda, baliq ovlash ta'qiqlangan pallalarda bu borada bir muncha qiyinchiliklar, muammolar tug'ilardi. Shu jihatdan mo'ljalidagi maskan ayni muddao daryoning o'zidan tashqari o'rmon ichidan oqadigan irmog'i ham juda ovbop edi. Eng muhimi - sohilda ota "meros" uycha bor edi. U salgina ta'mirlansa bas, vaqtincha yashashga bemalol yarardi.

Kulba o'rmon boshlanib, daryo o'zani qiyalab ketgan "chig'anoq"da joylashgan, hudud suvga serob, namchil qayirli bois, maysa-giyohlar to mezon oxirlarigacha yashil libosini yechmas, havo mo'tadil edi. Subhi sodiqda yorug'lik ne'matini, yorug' dunyoni ko'rish saodatini o'zaro suyunchilashib, bu bebaho xushonlar zavqi-sururidan g'ofil bandalar olamini ham bahramand etishga oshiqqan sergak, xushnavo qushlar xonishi avjiga minardi. So'ngroq yer uzra asta ko'tarilib chiqadigan quyosh nurlari narigi qirg'oqdagi mirzaterak, ko'kterak yaproqlarida qirmizi tusda tovlanib, g'aroyib manzara kasb etardi. Daryoning ul yuzida yashovchilar suvsiz o'zanning ancha qismiga ham tol, teraklar ekib yuborishgan, ayollar, yosh kelinchaklar, qizlar ana shu dov-daraxtlar orasidagi yolg'izoyoq yo'ldan shaldirama bo'yiga tushishardi-da, cho'nqayishgancha, idish-tovoq yuvishar yo paqir, obdastalarda suv opchiqib ketishardi. Daraxtlarning siyrakroq uchlari orasidan xiyla olisdagi, bir zamonlar alamnok amirzoda Zahiriddin Bobur to'riq oti jilovidan tutib, parishonxayol kezingan baland-past Andijon adirlari xususan tiniq tonglarda palagi yig'ishtirib olingan polizda dumalab yotgan qirqma qovunlar kabi yaqqol ko'zga tashlanardi. Mashriq tomondan sarin yellar toza tog' nafasini ufurib kelardi. May oyining boshlaridan shingil-shingil, qalampirmunchoqsimon jiyda gullarining mushk-ifori yeru osmonni tutib, atrofdagi bor jonzo'tning bahri-dilini ochib yuborar, xuddi ana shu kunlarning choshgohlarida hatto suvilonlarning ham bemisl o'tkir hiddan mast bo'lib, so'qmoq chetlarida xiragina chipor tangalarini quyoshga solib, taltayib yotganini ko'rish mumkin edi. O'zandagi soylarning toshdan-toshga urilib, sharqirab oqishi, ayniqsa, tunlari judayam maroqli eshitilardi. Jilg'asimon oqimlar mavjida balog'at pallasidagi oymomaning tanho, uyalib titrabgina cho'milishi, baliqlar bilan quvlashmachoq o'ynashlari yanada o'zgacha rohat bag'ishlardi kishiga. Bu go'zal holatlarni Bunin, Prishvin, Paustovskiy kabi tabiat tasviri mohirlari ko'rganida yoqa ushlab, ta'rifga so'z topolmay qolishlari, Levitanga o'xshagan musavvirlar esa kapa tikib, bearmon mo'yqalam surishlari tayin edi.

Bir xonalik uy yonida uch tarafi ochiq ayvon bo'lib, tunu kun g'ir-g'ir shabada arimaydigan o'sha oromgoh supasida atrofini tomosha qilib o'tirish bag'oyat huzurbaxsh edi. Kechasi ichkarida, ilon yo boshqa gazanda kirib olmasligi uchun eshikni zichlab berkitib yotishardi. O'rmonda ahyon-ahyonda tulki bir dam uzun, paxmoq dumini namoyish etib, ko'zdan g'oyib bo'lardi, tovuq yo'qligi bois, uy tevaragida o'ralashib yurmasdi. O'n-o'n besh qadam naridan o'tgan, ikki labini yashil qiyog', kulrang yalpiz bosgan irmoqda esa suvkalamush qunduzlar chopir-chopir qilib suzib yurishar, ba'zan qirg'oqda ham ko'zga tashlanib qolishardi. U chaqqon jonivor tasodifan yo jahli chiqqanida biron yeringizni tishlab olishi mumkin-u, harqalay xavfli emas. Shunday bo'lsa-da, Risolatga hamroh, ermak deb, mushuk boqishdi. Kalta dum, kesma quloq sariq ko'ppak Qaytmas esa doim ular bilan birga edi. Asli u yerni o'rmon deb atash ham nojoizroq. Chunki maydoni uncha katta emas o'n besh-yigirma gektarining nari-berisida, mulki boyligi esa asosan mirzaterak, tolterak, baqaterak, ancha-muncha qarag'ay, zarang va yovvoyi jiydadan iborat edi. Shuning uchun mahalliy aholi O'rmoncha deydi. Bir vaqtlar inson yurishga qiynaladigan qalingina, fayzligina edi, viloyat o'rmonchilik xo'jaligi qorovul qo'yib, oylik berardi. Rustamning otasi shu vazifada uzoq yillar ishlagan. Mustaqillik arafasidagi boshboshdoqlik davrida, gaz yo'q, chiroqning yonishidan o'chishi ko'p, qishloq ahli ikki qishda qiyratib tashladi. Odamgina emas, mashina, traktor ham bemalol bu yog'idan kirib, u yog'idan chiqib ketaveradigan qarovsiz siyrak daraxtzorga, bolalar qo'y-mol boqadigan o'tloqqa aylandi. Yanayam, tol, jiyda beor narsalar ekan, qancha sindirib, kesib ketilsa ham, yonidan, tagidan o'sib chiqaverardi. Chakalak bosib yotardi. Rustam chopib, qirtishlab, sal epaqaga keltirib qo'ydi. Yon dala fermeri o'z yeriga qo'shib olish payiga tushib qoluvdi, u hamon o'rmonchilik xo'jaligi hisobidaligini aniqlagach, ko'z olaytirmay qo'ydi. Rustam o'z xohishi bilan maoshsiz, tekinga qarab turishini aytganida, xo'jalik rahbariyati undan juda xursand bo'ldi. Rustam esa go'yo shu bilan ancha-muncha noqonuniy baliq ovlashini o'zicha oqlamoqchi edi.

Qoradaryoda suv bilan birga baliqlar turi, miqdori ham kamayib ketgan, asosan shim, oq amur, so'zanbaliq (usach), mayda

cho'rtan, zog'ora baliq bo'lib, bular ichida serobrog'i shim (ba'zi shevalarda "shum") bilan oq amur edi. Lekin suv toza, hidsizligi uchun Qoradaryo va uning irmog'idagi baliqlarning go'shti boshqa joylardagiga nisbatan ancha shirin, xushta'm, shu sababli xaridorgir edi. (Aslida bu suv osti erkatoylari chuqur o'zanli daryolarda to'p-to'p bo'lib yashaydi, lekin yaqin-atrofdan unaqa soy yo anhor bo'lmagach, bechoralar nima qilsin, qayga borsin!)

"Shikor"ga asosan kechasi, jonivorlar yemish izlab izg'iydigan mahalda chiqishga to'g'ri kelardi.

## II

Rustam haftada bir-ikki bozorga qatnar, o'rmondagi qarib qurigan yo shamol belidan cho'rt uzib yuborgan daraxtlarning shoxlarini butab, kesib-maydalab kelardi. So'ng er-xotin, biri o't yoqib, biri qozon kovlab, kichkina dekhada ikki kosagina mastava yo bir cho'qimgina osh pishirishar, ovqatdan so'ng ko'k choyni o'girib, u yoqdan-bu yoqdan gaplashib o'tirishardi. Diqqatpazlik, asabiylashish kam, birov ularning mushugini pisht, itini ket demas, o'zlari xohlaganicha, bamaylixotir umrguzaronlik qilishardi. Ha, aslida ular hayotlaridan nolishmasa ham bo'lardi. Risolat erdan yolchigan, Rustam esa eng ulug', mo'tabar orzusi sevganiga yetishishdek tolega erishgandi, bu tole, saodat unga sadoqatli hamroh va hamdam edi. Faqat, bir kam dunyo deganlaridek, chaqaloq yig'isi va kulgusiga zorlik keyingi paytlarda o'rta soya tashlay boshladi. Shugina bir kemtik, shugina o'kinch ikkalasining yuragiga vasvasa solayotgandek, har ikkisini oxir bir kun asosiy yo'ldan, hayot so'qmog'idan chalg'itadigandek tuyulaverardi. Qo'ni-qo'shni ayollar va yana kimlarningdir achingannamo, nazarida, hatto, istehzoli qarab qo'yishlarini, Risolatning go'yo oshkor etolmayotgan, iymanship, andisha yo'l bermayotgan o'pka-ginasi, nadomatini ham sezib-sezmaslikka olar, to'g'rirrog'i xayolidan o'tkazardi. Anavi, rafiqasining qizlik paytidagi xushtori bir davrada: "Gap soxt-sumbatdayam, telva kuchdayammas. Risolatning umrini bekor o'tkazyapti, u yaxshi qiz edi..." deb otgan qora chaqir tosh yuragiga yomon botib, tinchi, oromini yo'qotdi. Esladi, qaltiroq bosardi. "Raqibi"ning Toshkentdan kelganini eshitsu, xezlanib, kechqurunlari ko'chalarni aylanib yurdi, lekin hech xilvatroq joyda to'qnashishmadi. U oilasiga birov bilan mushtlashmaslikka so'z bergan, shuning uchun o'sha olifaniga kekirdagini ikki barmog'i bilan qisib, chakki aylanadigan urg'ochi tilini ko'rib qo'ymoqchi edi, xolos. Sekin-asta g'azab alangasi pastladi. Kesak qisgan, pakana alamidan, kuyganidan desa degandir-da. Bir hisobda... ehtimol boshqasiga tegsa farzandlik bo'larmidi... Yo u yaramas, nomard o'zi ko'z tikayotganmikin-a? Yo'g'-ey, o'libdimi, xotini bilan munosabatlari juda yaxshi deyishadi, o'g'il-qizlari bor. Lekin odamzodning siyratini bilish qiyin. Balki ayolining ham hamon unga mayli bordir. Axir o'n yil bir sinfdan o'qishgan, eng bebaho yoshlik davrlarini birga o'kazishgan. Darvoqe, Asqarning Risolat esdalikka hadya etgan, sahifalari ichiga "A.A.+H.R." harflari yozilgan "Yoshlikda bergan ko'ngil" kitobini haliyam asrab-avaylab yurishi qulog'iga chalinganda dilida yana g'ulg'ula g'imirchilab, buni ham anchagacha unutilmay qiynalgan.

Xullas, o'sha kuni gapni bir joyga qo'yishdi. Ular bir-birlarining ko'ngliga tegishmagandi, keyinchalik birga kechirgan farahli damlarini qo'msashlarini taxmin qilishardi. Ikkinchi turmushidan ichi chiqmay, ko'z ochib ko'rgani bilan qayta topishib ketgan er-xotinlar kammi? Shuning uchun yuz ko'rishmas bo'lib ajralishni ikkisi ham xohlashmasdi. Ikkovi ham bir-birlarining armon va iztiroblarini anglagan, his-tuyg'ularini qadrlagan, o'zaro omad, baxt tilagan holda, ayol er xonadonini tark etadigan bo'ldi. Rustamning sanoqligina cho'pqlari, mijozlari, eshitib yo surishtirib keladigan baliqxo'rlar bor edi. U o'ljalarni zarurat tug'ilgandagina bozorga eltib, pishirib sotadiganlarga ulgurji o'tkazib kelardi. Voqea yuz bergan, er-xotin ajrashishga ahdlashishgan oqshom Rustam ko'proq baliq tutib, ertasiga shaharga bormoqchi, sotib, puliga Risolatga sovg'a-salom olib kelmoqchi edi (lekin bu niyatini xotiniga bildirmagandi). O'sha oqshom, tabiiyki, uning ham, ayolining ham kayfiyatlari nosoz edi. Rustam kuni bo'yi garangsiganday o'ylanib yurdi, xayolidan ko'p narsalar, deyarli yigirma yillik hayoti, hatto uylanmasdan avvalgi oshiqi beqaror chog'larini ham bir-bir o'tdi. Qayerda qiz-juvonlar to'planib turishgan bo'lsa, o'shalar orasidan Risolatni qidirardi. To'ylarda u yaxshi ko'rinadigan joyni chamalab, mevalarini bolalar ship-shiydam qilib qo'yishgan olmagami, behigami suyanib, oyoqlarini chalishtirganicha, mo'ltayib tikilgani-tikilgan edi. O'ziyam seviklisini chamanzordagi yagona atirguldai, ko'zining qirida tanirdi. Risolat bezori (qizlar Rustamni shunday atashardi)ning "eb qo'ygudek" qarayotganini payqasa, "go'laymay o'l, ko'zing teshilgur..." deya pichirlab, shartta yonboshiga o'girilib yo nariroqqa jilib olar, lekin ikki-uch daqiqa o'tib-o'tmay "bezbet, andishasiz" yigitni yana ro'parasida ko'rib ensasi qotardi. Shunday kezlar gohida Risolat ikki-uch dugonasini yetaklab, to'yxonadan chiqib ketishni ma'qul ko'rardi. Rustam surlik qilib ularning izidan tushar, buni sezgan qizlar ohuday hurkishib, qadamlarini tezlatishar va o'zlarini duch kelgan darvozaga urib, ko'zdan g'oyib bo'lishardi. Mulzam xushtor o'sha yerda, biron daraxt panasida shumshayib kuta-kuta, so'ljayib qayta boshlar, shunda orqasidan "qiqir-qiqir" kulgi eshitar, lekin endi izzat-nafsi og'rigan yigit ularni quvalashdan o'zini tiyardi. Hozir o'sha tentakliklarini o'ylasa, Risolatning oldida yerga kirib ketguday uyaladi, undan qayta-qayta kechirim so'raydi. (Risolat ham uning xurmacha qiliqlaridan g'ashi kelib, zada bo'lganlarini aytib berar, ammo so'kib-qarg'aganlari haqida indamasdi). Yaxshiyamki, boshqalarga tengqur, kattaroq yigitlarga qo'llaydigan noma'qulchiliklari atayin yelkasi bilan turtib o'tish, baqirib-chaqirishlarini qizga nisbatan ishlatmasdi. Aksincha, Risolatning qorasiga nigohi tushishi bilan qadamlari o'z-o'zidan sustlashib, yovvoyi kuch ko'pchitib turgan tomirlari, mushaklari dami chiqib ketgan sharday bo'shashardi. Asqar bilan bir-birlariga yov qarash qilib yurishardi. To'y va boshqa yig'inlarda Rustam gap kovlashtirib, janjal qo'zishga urinar, lekin Asqar undan yosh bo'lsa ham, og'ir-bosiqigidanmi yo cho'chirmidi, hartugul g'ijinish, piching-kesatiqlardan o't chiqmasdi. Keyin u o'qishga ketvordi-yu, qizdan quruq qoldi. O'zidan ko'rsin, olifta, pandavaqi...

\*\*\*

Zotan, ajralish borasida avvallari ham er-xotin o'rtasida hazilmi-chin ishoralar bo'lib turardi-yu, har gal Rustam mavzuni boshqa yoqqa burardi. Ko'pincha taklif Risolatdan chiqardi. U onalik baxtiga muyassar bo'lolmaganidan ham ko'ra, Rustamga otalik saodati, iftixorini ato etolmaganiga ko'proq kuyunar, xijolat chekardi, chunki u aybni o'zida deb bilardi. Tabiblargacha, do'xtirlarga ko'rinishdi, ularning tavsiyalariga binoan ko'p davolanishdi, biroq samara yo'q edi. Farzand har ikkisiga ham juda zarur edi. Shavkat borligidayam uncha sezilmasdi, u poytaxtga ketib, Sanobar xola olamdan o'tgach, huvillashib qoldi. Rustam xotinini o'ylab, to'r sudrashga ham qiziqmay qo'ydi. Pulga zoriqishsa qo'shnining qizlaridan Risolat bilan birga o'tirib turishini iltimos qilib, daryoga yo'l olardi. Biroq bunday paytlarda soat millari juda shitob aylanayotganday, betoqatlanib, ovi mo'ljaliga yetmasa ham, tezroq qaytib yuborardi. Shunaqa mahalda Rustamga farzand, ayniqsa o'g'ilning qadri o'tardi. Ko'pgina bolalar Rossiya, Qozog'iston, bo'lak xorijiy mamlakatlarda ishlab, dollar jo'natishib oila boqishyapti. Rustamlarning dastlabki go'dagi o'lmaganida hozir yigirmaga kirib, u ham ishga yaraydigan azamat yigit bo'p qoldi. Boshqa yoqqa borib pul topib kelishining hojati yo'q, otasiga qarashib, unga hamdast bo'lsa bas edi. Risolat ham shu fikrda edi. "Bechoraga juda jabr, hamma ishga bir o'zi... deb mulohaza yuritardi u. Bir qora ko'z "qo'chqor" tug'ib berganimda yoniga kirardi, jilla qursa, savatini jildirishib, paqir-maqirini

ko'tarishib yurardi..." (O'g'illari bo'lganda, balki umuman savat, paqir orqalab, bemahallarda suv kechib izg'ishga ham to'g'ri kelmasdi).

"Aqalli bir qizaloq ko'rganimizda... ko'nglidan o'tkazardi Rustam, uyda onasiga qarashib, uning yolg'izligini bildirmasdi". Risolatning kunduzlari ham zerikib siqilishini (aksiga olib, hovlilari ham uncha katta emas edi), kechalari u ovdan yo biron izdihomdan kelguncha yuragi dukillab, ko'zi to'rt bo'lib o'tirishini yaxshi bilar, shuning uchun qayerdan bo'lsa ham barvaqtroq jilishga oshiqardi. Ayniqsa, davrada ayollar haqida har xil gap ketgan chog'larda paytvasiga qurt tushib, bezovtalanib qolardi. Baliqchilik qishloq sharoitida odamni boy qiladigan kasb emas, undan keladigan daromad kundalik tirikchilikni tebratishga uchma-uch yetadi, xolos. Daryoda suv oz, baliq kam... Qolaversa, sal qo'ri bor yoshlarni demasa, boshqalar barakasi yo'q, bir yeyishlik narsa, go'sht o'rini bosmaydi, unga yana oq yog' (o'simlik moyi) ham ketadi, deb, baliqqa uncha qiziqishmaydi. Har zamonda istab-so'rab keladiganlardan tushadigani nimayam bo'lardi. Keyin, yakka odam qanchayam baliq tuta olardi? Xullas, farzand yo'qligi har qadamda, har taraflama sezilib turardi. Ajralishga esa Rustamning hech ko'zi qiymas, judolikka chidolmayman, deb qo'rqardi. Buning qator asoslari bor edi, albatta. Avvalo u noxush bir tasodif, favqulodda hodisa bahonasida yetishgan qalbining chirog'i, uyining farishtasi malikasini hamon ilgariyidek yaxshi ko'rar, uning diliga ozor yetkazib qo'yishdan mudom o'zini ehtiyotlab yurardi. Kelin esa zavji muhtarami xohish-irodasiga hech qarshi bormas, u bilan talashib-tortishmas, ro'zg'or kamchiliklaridan, boshqa yetishmovchiliklardan zorlanavermas, hech kimga hasrat qilmas (bunaqasi, ayniqsa, hozirgi zamonda kamdan-kam uchraydi), ichi kulmasa-da, sirdan mumkin qadar jilmayib turishga tirishardi. Kuyoviga kir ust-bosh kiydirmasdi. Har doim bet-qo'lga suv tayyorlab beradi, ta'bi tusagan taomni vaqtida muhayyo etadi. Shar'iy jihatdan ham risoladagiday ish tutadi... Shuningdek, ular nikoh ahdini buzishga sabab bo'layotgan omil tufayli bir-birlariga suyanib qolishgan edi. Xullas, hech mubolag'asiz ahil yashashardi (xonadondagi g'alva-nizolarni, kelishmovchiliklarni, odatda, aksariyat jigarbandlar, ularning ota-onanikiga zid dunyoB-qarashlari, erkalik yo injiqliklari, poyonsiz orzu-havaslar, bad fe'llari keltirib chiqaradi-da). Bundan tashqari, Risolatning ko'ch-ko'roni bilan borib o'tiradigan joyi ham chatoq ota hovlilarida akasi bilan kelinayasi bir etak jujuqlari bilan o'zlarini arang eplab kun ko'rishadi. Risolatning eri bilan inoqligidan ko'ngli to'q og'a onasining hujrasiga ham qizlarini joylab qo'ygani edi, singlisi uchun alohida uy-joy tiklab berishga uning qurbi yetmas, bu ish Rustamning ham qo'lidan kelmas edi. Boshpana hal etilgan taqdirda ham, bir-umr kelinayasi, jiyalarining qosh-qovog'iga qarab kun o'tkazish qiyinligini Rustam ham, Risolatning o'zi ham yaxshi anglardi. Garchi Risolat "siz yana uyulanib ko'ring, men ming marta roziman", desa-da, aslida ajralishga qat'iy harakat qilmayotgandek tuyular, bir vaqtlar uni toshqin balosidan, naq ajal changalidan ajratib olgani uchun o'zini qarzdor, burchli deb bilib, nima bo'lsa ham, to haydab yubormaguncha shu odam bilan yashashim, uning xizmatini o'tashim kerak, deb o'ylamayaptimikin, degan ishtiboh ezardi Rustamni. Bu haqda Risolatning o'zidan so'ramoqqa og'iz juftlar, ammo shundoq ham ko'ngli yarim ayolning yarasini tirnab qo'yishdan cho'chirdi. Risolat esa toshqinni bot-bot eslar, pushti panohidan o'la-o'lguncha minnatdorligini ta'kidlar, uning so'zlari juda ham samimiyya o'xshardi.

\* \* \*

Rustam qat'iy qarorga kelguncha, to'g'rirog'i, xotining maslahatini yoqlab, rozilik bildirguncha bu masala o'zlari o'rtasidagina emas, boshqalar ishtiroki, aralashuvi, tazB-yiqida ham ko'p bora muhokama etildi. Rahmatli qaynona kelinini joni-dilida ko'rardi, chunki Risolat ham uni o'z onasiday e'zozlar, yuziga tik qaramasdi. "Mashvarat"larda Sanobar xola ko'pincha sukut saqlar, keyinroq o'g'li bilan yolg'iz qolishganda ixtiyorni uning o'ziga qo'yar, lekin gap orasida Risolatday og'ir-bosiq, esli juvonni topish qiyinligini, unga achinishini ham qistirib o'tardi. Qishloqqa har zamonda bir keladigan opa Habibagina uzil-kesil ajralish tarafdori edi.

Bittagina o'g'ilsan, men birovning xasmida, boshqa familiyadaman, sendan keyin nasl-nasabimiz yo'qolib ketadi-ku, deb Rustamni qisdi-qafasga olardi. Namuncha undan ko'ngil uzolmaysan, hamma xotin bir xotinu, pushti kuygan, tug'mas ilm-amal bilan xushingni og'dirib, tilingni boylab olganmi deymen?! Yaxshiyam u senimas, sen uni qutqarvolgansan!..

Rustam betini sidirib, shifokorlarga qatnashganini aytishga jazm etadi.

Do'xtirlar...

Habiba uning gapini tilidan uzib, yoqasiga yopishtiradi.

Buni faqat Xudo biladi, yo do'xtirlarning Xudodanam zo'rmi? Ular aytishaveradi. Ana, Toshko'chadagi nechchi yil tirnoqqa zor bo'lib yurishgan Surob bilan Marziya satang boshqa ro'zg'or qilib, ikkalasiyam bolalik bo'lishibdi!

Risolat qaynopasining tashrifidan bezillardi. "Opa-opa"lab, izzat-ikromini joyiga qo'yishga tirishsa-da, Habibaning zimdan noxush qarashini, u to'g'rida ukasiga bir nimalar deb sannashini ko'ngli sezib turardi.

Pochchasi Quadrat aka tushungan odam-da, "Opangiz gapiraveradi, farzandsiz yashayotganlar bir sizlarmas, yaxshi xotin asil xotin. Hozirgi bolalar ota-onasiga nima karomat ko'rsatishyapti?" deb, Rustamga taskin berardi. Habiba esa ajralishga dalil bo'ladigan vajlarni oshirib, qalashtirib tashlardi. Rustam jigarining avlod xususidagi kuyiB-nishlarida jon borligini tan olar, o'sha paytda ikkilanar va opaning da'vatiga moyilligi kuchayardi-yu, oradan bir kun o'tib-o'tmay yana shashti pasayardi. Risolatning ohuniki kabi himoya izlab, shafqat tilayotgan chiroyli, ma'suma ko'zlariga nigohi tushishi bilan ajralishga oid xayollari parday to'zirdi. Kim avval, kim keyin Xudo biladi, lekin... Agar Risolat yolg'iz qolguday bo'lsa, bu uyda holi nima kechadi? Keksayadi, kasalga chalinishi bor... Boshi yostiqa tekka kim qaraydi?.. Akasinikida bo'lsa, har qalay, bir tug'ishgani-ku, xor qilib tashlab qo'ymas axir. Balki, birontasiga... Rustam shunisini o'ylasa, darhol aynirdi. O'zi bilan shuncha yil bir yostiqa bosh qo'ygani suyuklisini boshqa bir kimsaning qo'ynida tasavvur etsa, a'zoi badani titrab, ichi yonaboshlar, ko'zlarini qattiq yumib, pastki labini qonatguday tishlar, ba'zi paytlarda jazavasi tutib qolardi. Agar Risolat yonida shunday hol ro'y bersa, darhol undan uzoqlashib, to'r yamash, o'roq charxlash kabi yumushlar bilan o'zini chalg'itish payiga tushardi. Juvonning dilidan ham "boshqa bir erkakka tegib ko'rsam nima bo'larkin", degan xayol kechishi mumkinligi haqidagi farazdan esa yanada battar iztirob chekar, dunyo ko'ziga qorong'i ko'rinib ketardi. Ammo hayotning shunday achchiq va lekin temir qonunlari borki, bandasi ularni o'zgartirishga qodir emas, bo'ysunmaslikka ham chora topa bilmas. Haqiqiy erkak esa haqiqat yuziga mardona qarashi, uning shafqatsiz, odilona hukmidan bo'yin tovlamasligi lozim. Ayol kishini farzandli baxtli qilolmadingmi, taqdirga bosh eg-da, mushtipar-bechoraning o'z toleini yana bir bor sinab ko'rishiga izn, imkon ber! Yaxshi ko'rgan odamingning eng ulug', eng tansiq orzusi ushalishini nahotki xohlamasang? Nahotki, o'shanday jonajoning shodligini o'z quvonchingday bilmasang, u bilan qo'shilib sevinolmasang?.. Lekin Rustamning o'zi-chi? U kim bilan qoladi, og'rib-netsa, kim unga g'amguzor, hamdard bo'ladi? Birgina ilinji Shavkatdan edi, u ham Toshkentda qoldi. O'sha jiyani uylab olishsa, kelin, ularning bolalari bilan ovunib yashashaverarmidi... Balki opasi aynan shuning uchun ham o'g'lining qishloqqa qaytishini istamagandir...

Ha-a, o'zingnikimas-da... Bir hisobda yoshlarning kelajagiga to'g'anoq bo'lish ham insofdanmas. Lekin opasi aytganday, boshqa birovni Risolatga o'xshata olishiga Rustamning ko'zi yetmasdi. Risolat ham o'zga bir erkakning yelkasini silashni zinhor istamasdi. Agar akasining o'g'il-qizlariga yaxshi gapirib, ko'nglini ovlasa, ular ham o'z farzandiday qovushib ketishi mumkin. Rustam ham Risolatning shunday yo'l tutib, jiyanlarining mehrini qozonishiga ishonardi, axir u tili shirin, muloyim juvon-ku. Buni Rustam xotiniga ham shama qiladi. O'zining yana uylanib ko'rishi haqida esa, lom-mim demaydi. Risolat gap aylantirsa, ma'yus bosh chayqaydi.

Yo'q, Risolat, yaxshi ko'rmay turmush qurish qiyin bo'lsa kerak. Men faqat sizni yoqtirganman.

Axir erkak boshingiz bilan yolg'iz o'tirolmaysiz. Xotin kishining yo'rig'i bo'lak kirini o'zi yuvadi, oziq-ovqatini o'zi pishirib, qozon-tovog'ini o'zi yuvadi, yirtiq-yamog'ini o'zi tikadi, derdi Risolat sidqidildan. Olamda yaxshi ayol ko'p...

Risolat...

Bu ism so'z ifodasi, ohangida iltijo, o'kinch, minnatdorchiilik, achinish bari mujassam edi, buni Risolat ham dil-dildan his etardi. Siz juda yaxshi insonsiz, Rustam aka...

...  
Meni yaxshilik bilan eslab, sog'-salomat yurishingizni xohlayman.  
Men sizni baxtiyor qilolmadim.

Unaqa demang, peshonamizga yozilganini, nasib etganini ko'rmay ilojimiz yo'q. Ehtimol, bu ikkovimizga Yaratganning imtihonidir.

Boshqa har qanday sinovga chidashga roziydim... Rustam mijjalariga sizgan namni bosh barmog'ining orqasi bilan kishi bilmas siypalab, o'rnidan qo'zg'aldi. Risolat unga yondoshib, cho'ka boshlagan yelkalariga yengil titrayotgan kaftlarini bosdi.

Tavba deng, Rustam aka, yaxshi yashadik... Ayolning ko'zlaridan dumalagan yosh erining yoqasiga tomidi. U chuqur entikib, so'lish oldi. Xotiniga mehri tovlanib, uni og'ushiga tortdi-da, suyukligim, azizam, yo'q, seni hech kimga bermayman, deganday mahkam quchdi. Ayol baquvvat bilaklar qisuvidan malollanmadi, balki qoniqish tuydi. Qani endi shu shafqatli, qaynoq bag'rga singib ketsa, undan sira, hech qachon ajralmasa... Juvonning anor yuzini panogohi keng, alpona ko'krakka bosib, ko'zlarini yumib turishida shu istak, shunday ma'no zohir edi. Risolat uchun shu paytda orzu-havas, huzur-halovat, farzand, umuman hayot mehribon, muhabbati zo'r erining ko'ksidan, uning qalbi taftidan, badanining haroratidan iborat, najot esa beliga yoqimli botayotgan va tobora jipslab tortayotgan kuchli qo'llarda edi. Rustamning shunday mahalda boz alanganadigan ehtirosi chorlovi, undoviga Risolatning royish hissiyotlari tortinibgina mayl etib, o'sha ehtirosi ila qovushib-qorishib, imdod olmoq, tobe bo'lmoq, ikkala vujudni ham qizdirib kuydira boshlagan otash-olovni pasaytirmoq ishtiyoqida mavjlanib talpinar, mahzun shahlo ko'zlar nurlanib, qimtilgan g'uncha lablar qati qiya ochilib, o'zlarini bag'ishlamoqqa hozirligidan pinhona dalolat qilardi... Ikkisi ham olamni, uning barcha tashvishlari, g'amliariyu kemptiklarini, bor armonu nadomatlarini unutishar, shunday yashayverish mumkin-ku, degan yoqimli, umidbaxsh xayoldan tasalli topishardi... Ajabki, aynan yurakni ziqlab, dilga g'ashlik soladigan ajralish muammosiga oid musohaba, muhokama nihoyasi ana shu tarzda, ana shunday xotimada to'xtaydi. Keyin anchagacha bu mavzuni qayta qo'zg'ashga hech kim botinolmaydi, istamaydi. O'rtada bir sabab ko'ndalang bo'limguncha umr o'z maromida davom etadi.B-

\* \* \*

Quvonchu qayg'u hamisha yonma-yon yuradigan yorug' jahonning odamzotga muruvvatidan ko'ra ranju ozorlari bisyorroq. Yoshlikda-ku uncha emas, yosh o'ta boshlagach, ayol ham, erkak ham ko'makchiga, hamrohga, hamdardga muhtojlik seza borishi sir emas. Axir jamiki yer usti, suv osti jonivorlari, hatto yovvoyi, vahshiy hayvonlaru darrandalar ham gala-gala, to'p-to'p bo'lib yashaydi-ku. Bir paqir suvgayam, bir tutam o'tingayam er yoki xotin o'zlari yugurgan paytlarda, bir g'o'lani arralashga to'g'ri kelganda yana sherik, yordamchi farzandning o'rni bilinadi. Mehmondorchiilik va boshqa yig'inlarda o'g'il-qizlar haqida gap ketsa, Rustamning yuragi uvishib, chaynagani bo'g'zida qolardi. Bola yetaklab borayotgan ayolni ko'rsa g'alati bir qiziqish uyg'ongandek bo'lib, darhol o'zini chalg'itishga harakat qiladi. Ko'chada bola bilan, bolasiz yurgan qiz-juvonlarning hech biri Risolatga mengzamasligi, uning o'rnini bosolmasligini o'ziga pesh keltirib tetiklashadi. Uylari tomon qadamini tezlatadi. Xotining qora ko'zlariga nazari tushgach, xotirjam tortib, ko'ngil tubida g'imirlagan havas niqobidagi nojoiz xayol uchun xijolat chekadi-da, nigohini olib qochadi. Ammo baribir qachondir bir qarorga kelishi zarur edi. Axir umrbod ikkilanib, mujmallanib, arosatda yashash azob-ku. Keyin, Rustam Risolatni qanchalik yaxshi ko'rmasin, qanchalik qizg'onmasin, tili boshqaga uylanmayman, demasin, miyasining bir chekkasida "ehtimol, opam aytganday, do'xtirlar ham yanglishayotgandir, o'zimni boshqa bilan sinab ko'rsam, qanday bo'larkin", degan mulohaza ham yo'q emas edi. Balki Risolat ham undan ajrashiboq, birontasining etagidan tutib ketar. Erkak ko'zi bilan yoqtiradi, biroq u sirli xilqatning erkakka nima uchun, qanday ko'ngil qo'yishini anglash amri mahol. Halvoday yumshoq, toshyong'oqday qattiq va jumboq xotin zotining qalbini zabt aylamoqqa ba'zida bir og'iz shirin so'z, bir dona gul yoki bir ma'qul hatti-harakat kifoya qilishi mumkin. "Maqtovdan suyulmaydigan, xushomadni chinakamiga inkor etadigan ayol hali tug'ilmagan", deydi shaharda ishlaydigan bir jo'rasi. Rustam-ku ko'chadagi gaplarga ishonavermaydi, hammasi birday bo'lishi mumkinmas, o'ylardi u ichida. Masalan, Risolati aslo unaqamas. Ammo butoqda kurtak bo'lsa, albatta bir kun nish urishi rost. Ishtiyoq ham shunga o'xshagan narsa.

Xullas, Rustam otasiyu akasi o'rnidagi yagona tog'asiga dil yordi. Risolatning yigirma yildan beri "beting qursin" deyidigan bir ish qilmagani, buning onasini biron marta ranjitmagani, faqat u, garchi sezdirmaslikka urinsa-da, go'dak hidiga yuragi ezilayotganini, shifokorlarning xulosalarini yashirmay (ayb ikkisidayam borligini), ochiq aytdi.

Bunaqa chigal ishda birovga yo'l ko'rsatish mushkul, jiyan, dedi andishali, mulohazali tog'a. Ko'pga maslahat sol, o'z bilganingdan qolma, deydi xalq. Oila nozik, injiq soha. Bir etak bola bilan kunda qirpichoq bo'lib yashayotgan yo ozor-bezor bo'lib ketayotgan er-xotinlar ham ko'p. Dunyoda befarzand bir senmiding?! (Pochchasi ham shunday devdi). Ammo aqlli insondan bir narsa qolishiyam kerak: yo ilm, yo hunar, yo zurriyot. Shu jihatdan opang haq. Kelinni fikri qanday?

Rustam kalovlandi. "Bu fikr o'shandan chiqqan" desa, tog'asi nima xayolga boradi?

Avval ko'nmay yurdi. Haydayapsizmi, deb xafayam bo'ldi. Men sizni keyiningizni o'ylayapman, o'zimga qolsa ajralgim yo'q edi, deb tushuntirdim.

Bola boqib olsanglar-chi?

Bunga ikkalamizniyam rag'batimiz yo'q. Chunki u "zuvala" kimniki bo'ladi, zoti qanaqa... Risolat akasiga gap uchirib ko'rdi qizlaringizdan bittasi biznikida yurib tursa deganday... Kelinayang bilan maslahatlashaylik-chi, deganicha jimib ketdi. Xotini

unamadi shekilli. Tashlandi, birovg'a berib yuborilgan bolani... men yaxshi tushunmayman. Pusht bulg'angandan ko'ra... Hafiz aka esingizda bormi, asrab olgan o'g'li o'zini osib qo'yib, qanchagacha tergov berib yurgan. Hozir bolani narxiyam oshib ketibdi...

Mayli, tag'in bir tanangga o'ylab ko'r. Ajralish oson bir og'iz kalima, tamom, lekin mustahkam oila qurish qiyin. Keyin, Parvardigor bog'lagan rishtani banda uzolmaydi, yana, taqdirlaring biladi.

Risolatning ham akasidan o'zga yaqin qarindoshi yo'q edi. Unga qolsa, singlisi tug'adimi, tug'maydimi, tushgan yerida toshday qotib o'tirgani yaxshi. Eridan chiqsa, unikidan ota joyidan boshqa boradigan makoni bormi? Unga-ku, og'irligi tushmaydi, og'irligi tushgan taqdirdayam qovoq chimirishga haqqi yo'q, axir nima bo'lsayam, yolg'iz singil, musulmonchilik nuqtai nazaridan ham unga qanotini ochish burchi. Qolaversa, onasi: shu, Risolat bironta tug'ib olmadi-da, bolasiz oilaning rishtasi mo'rt bo'ladi, qattiqroq bir tortilsa, uzilib ketadi. Sen ota o'rnidasan, ko'z-quloq bo'lib turgin. Meni hujramni buzvormagin, biron kor-hol yuz bersa, singling kelib o'tiradi, deb ko'p tayinlardi. Avvalo o'sha kor-hol yuz bermasin, yuz bersa, jigarchilik, qarab turarmidi, ko'chirib keladi-da. Ammo o'rtada "viji-viji" qilib quloqni yeydigan, muhabbati, tamannosi bilan, bular ish bermasa, mo'ltoni-kashmiriligi yo muttahamligi bilan har qanday erkakni poxol bovlidqday eshib, qo'g'irchoqday pildiratib yuboradigan xotin degan bir kas bor...

### III

Mash'um toshqingacha, to'ygacha Risolatning hayoti butunlay bo'lakcha kechgan edi. U mutaassib dindorlar xonadonida tug'ilgan bo'lib, Yaratgan egam go'zalligu latofat bobida karamiyu qudratini qizdan ayamagan edi. O'rta bo'ydan tikroq, bo'limligina. Kiprikleri zich, qora qoshlari xuddi ona qornidayoq farishtalar tomonidan terib qo'yilganday me'yoriy enlikda, uchlari bir oz egilgan, mangB-layi ham risoladagiday keng ham, tor ham emas, burni, iyagi nafis, xullas, qaddi-qomatiyu yurish-turishidan hatto ashaddiy hasadgo'y ayol ham qusur topolmay qiynalardi. Ayniqsa, shu zamonda juda noyob va tansiq hodisa bo'lgan bir o'rim, soniga uradigan to'sday qop-qora sochi bo'yiga juda yarashib, xiyol bo'rtik bo'ksasi uzra yengil silkinardi. Aslida tabiatning bu in'omidan Risolatning o'zi u qadar mamnun emas edi. Uzun soch o'rimi deyarli urfdan chiqqan, orqaga tashlab, har xil nazarlarni jalb etishni xushlamasdi ham. Maktabda o'g'il sinfdoshlarning tegajoqligidan bezillab, uyda ish bilan mashg'ul paytlarda boshi orqasiga kulcha qilib, o'rab-chirmab olar, ammo hadeganda tushib ketaverib zeriktirardi. Ota-onalarining tazyiqidan qo'rqib kestirmas, uzun sochni esa, paxmaytirib yoyib yurib bo'lmas, bunga uydagilar yo'l qo'yishmasdi ham.

Risolat maktabda yaxshi o'qirdi, ertayu kech kitobga yopishaverganidan hadiksiragan ona uni barvaqt bir chevarga shogird qilib berdi. Maktabni bitirgan chog'da institutga o'qishga kirishdan so'z ochib ko'rди, volidai muhtarama: o'zingga yarasha ilming, hunaring ham bor, hadislarida qiz bolaga eng yaxshi kasb chevarlik deyilgan, baribir otang ko'nmaydiyam, deb shashtidan qaytardi. Xonadonda otaning gapi gap, unga e'tiroz bildirish rasm emas edi. Yakka qizligiga qaramay, oilada Risolatga ham ortiqcha erk berilmasdi.

Onaizor nuri diydasing chehrasi ochilmay qolganidan tashvishlanib, gapning uchini chiqaruvdi, er unga bir ho'kiz qarash qildi. Odamning jon-jonidan o'tguvchi bu qarash ham javob, ham dashnom edi. Otaning tarbiya usuli shundoq edi urmay-so'kmay jon sug'urardi. Ismi Halim esa-da, fe'li halim emas edi. U "qiz degan narsa"ning notanish joylarda yolg'iz, nazoratsiz yurishi g'urbat keltiradi xolos derdi. Boshqalar-chi, degan mulohazaga "bu hammaning shaxsiy ishi, har kim o'zi javob beradi, ammo farzand nomai a'moli uchun ota-ona mas'ul", deb, yana qator hadislarini qalastirardi. Allohdan "Ey Parvardigoro, shu o'jizamizni egasiga, bir mo'min-musulmonga topshirgunimizcha, o'zidan ko'payib, tinib-tinchiguncha menga umr ber", deb tilardi. Afsuski, niyatiga yetmadi, duolari ijobat bo'lmadi.

Risolat chevarchilikka, bichish-tikishga mukkasidan tushib, uydan chiqmay qo'ygani uchunmi, oyday yuzi zahillasha boshlaganday tuyulardi. Aslida buning boisi boshB-qa edi.

\* \* \*

Risolatga xaridor ko'p edi, lekin ularnikiga sovchilikka hamma yurak yutib boravermasdi: xalq Halim qorini o'zi ham, ostonasi ham qattiq, deb bilardi, oqsoqol ham g'o'rasha loyday elga aralashavermasdi.

Halim qori hovlisidagi tanho "nafarmon gul"ga ko'z tikkan, uning ilinjida tunlarni bedor o'tkazib, saharlar nolavor xonish qiladigan "bulbul"lardan biri, shubhasiz, Rustam edi. Gulruxsori ko'chada ko'rindi deguncha izidan tushar, yo'lini to'sib, qishloqchasiga, dangaliga "menga tegasizmi?" deb so'rar, qiz lom-mim demay, boshini egganicha uni chetlab o'tib, qadamini tezlatar, Rustam esa "baribir sizni olaman, mana qarab turasiz!..", derdi tap tortmay va orqa-oldiga qaramay chopib borayotgan Risolat ko'zdan yiroqlashguncha kuzatib qolardi. U aslida barvasta, kelishgan, qizlar diqqatini tortadigan kelbatli yigit edi, lekin Risolatning unga ro'yxushlik bermasligining sabablari bor edi. Maktabda yaxshi o'qimagan (u Risolatdan uch sinf yuqori edi), Rustam hali u, hali bu bilan mushtlashib yurar, ko'plar undan hayiqardi. Qolaversa, Rustamni Risolatning dugonasi Dilorom yaxshi ko'rardi.

Nimasini yoqtirasan o'zi o'sha bezorini? so'rardi Risolat peshonasini tirishtirib.

Sho'xligini, dadilligini... Agar seni o'rningda bo'lganimda...

Risolat ikki qo'lini ko'tarardi.

Hay-hay-hay, o'zingga buyursin o'sha so'laqmoning.

Ho-o, sizniki naqd-da, a?..

\* \* \*

Risolat sinfdoshlaridan biriga ko'ngil bergan, bu borada u ancha jasoratli edi. Ishq har qanday qo'rzoqni botirga, hazrat Navoiy yozganidek, musulmoni komilni kofir, g'ayridinga, ashaddiy xudojo'yni dahriyga aylantirishi ham hech gapmas. Ular kechalari Risolatning qishloq chetida joylashgan ovloq uylari orqasidagi terakzor-giloszorda uchrashishardi. Asqar maktabda Risolatga sekin daftar yo kitob uzatar, uning orasiga solingan bir parcha qog'ozda uchrashuv vaqti ko'rsatildardi. Qiz rozi bo'lsa, indamas, aks holda fursatni o'zi belgilab, "Bu kitobni o'qigan ekanman", deb qaytarib berardi. Terakzorga hovliqib, muddatidan avvalroq borgan yigitcha qadrton baqaterak yoniga gazeta to'shab, shitirlagan tovushni poylab, intizorlik bilan, yuragi dukillab o'tirardi. Daricha orqali o'tgan Risolat shox-novdalarni ikki yoqqa ehtiyotkorlik bilan qayirib, malakmonand ohista, oyog'i yerga tegib-tegmay kelardi. Asqar o'rnidan dast turar, ikki navnihol va bokira vujud uzoq vaqt ko'rishmagandek bir-biriga intiqlik bilan talpinib, yaqin kelishganda to'xtashar, yigit qizning issiq bilaklaridan tutar va ular sukunatning olis-olis puchmoqlariga, balki, odamlar qo'li, so'zi yetmas osmonu falakka parvoz etishardi. Xiyla muhlatdan so'ng yerga qayta qo'nishgach, ulkan baqaterakka

suyangancha, yelkalari aro bir-biriga tutashayotgan haroratdan a'zoi badanlari qizib, qalblari hayajonga to'lib, tomirlarida qon gupurib, uzoq-uzoq o'tirishardi. Quloqlariga chigirtka-chirildoqlar chirillashi kirmas, boyqush ovozidan ham cho'chishmasdi. Teraklarning oy nurida yal-yal tovlanayotgan kumushrang yaproqlari lolu behushlar qulog'iga: "Qanday baxtlisizlar..." deganday yoqimli shivirlardi, shoxlar orasidan mo'ralab-mo'ralab qo'yayotgan to'lin oy esa: "Bahuzur o'tiraveringlar, men ko'z-quloq bo'lib turaman, to'yib-to'yib diydorlashinglar, bu damlar qaytmas damlar", deyayotgandek... Nihoyat Asqar tilga kiradi-da, Cho'lpon satrlarini takrorlab: "Siz oydan-da go'zalsiz" deydi Risolatning uzun sochlarini bilagiga o'rab. (Shoir deyarli barcha sohibjamol mahbubalarning volai mahliyolari dilidagi, tilidagi lutfni qog'ozga tushirgan). "Qo'ysangiz..." deydi qiz va yigit kiftiga peshonasini ishqab erkalanadi. Oy mavzuida boshlangan suhbat Otabek va Kumush, Muqaddas va Sharif qissalariga, vafoga, o'zaro ahd-paymonga ulanadi. Risolat yigit qo'llarining bejo harakatlaridan himoyalannmoq uchun uning pinjiga suqiladi. Asqar bag'riga bosib-bosmay, labi yuzlariga tegib-tegmay, qiz o'zini olib qochadi, "bo'ldi-da- yey, betimni qizartirib tashlaysiz, ayam sezib qolsa, nima deyman" deb, boshini yana shaydosining ko'ksiga yashiradi.

Juda bo'lakcha yoqimli-da, deydi yigit entikib.

Nimasi bo'lakcha, hammanikiga o'xshagan-da, g'amza ila e'tiroz bildiradi qiz.

Yo'q, Risol, boshqalarnikiga o'xshamaydi.

Qayoqdan bilasiz, yo boshqalarniyam o'pib ko'rganmisiz?

Kulishadi.

Faqat yuzim bo'lakchami?

Hamma joyingiz...

Aldoqchi-ey...

Navozishli raddiyalar navqiron qalb hissiyotlarini puflab alangalatadi... Qiz shunday bo'layotgani yigitni avjlantirayotganini payqarmikin? Hoynahoy, payqardi...

Men sizga to'yarmikinman?..

To'yarsizam, qiziqmayam qo'yarsiz...

Yo'q, men sizga aslo to'yamasam kerak.

To'ydirmaymanam-da...

Asqarning taltaygan dudoqlari cho'chchayib, yana sanami tomon intiladi. Risolat yonoqlarini kafti yo durrahasi bilan to'sadi, betoqat, bebosh oshiftaning iyagiga sekin chertib qo'yadi. "Haddingizdan oshmang-da, adabsiz bola" deya, uning kaftlarini otash bo'lib yonayotgan gulgun chehrasiga bosadi. Boshlar tizzalardan orom izlaydi. Yigit qisimiga to'lib-toshib, xush bo'y taratuvchi sochlarni silab o'ynaydi. Hatto oysiz, qorong'u kechalarda ham bir-birlarini qalb ko'zlari bilan ravshan ko'rishib, hirsona termulishardi.

Ular ko'pincha hamma narsa dunyoni, ota-onalarning xohish-irodasi, hadik, vaqt degan poyloqchi, ta'qibchilarni butunlay faromush etishardi. Qiqir-qiqir kulgulari balandlay boshlagandagina qayerdaliklari eslariga tushardi.

Qaytaylik endi, kech bo'ldi, meni istab qolishadi, deydi Risolat ko'ylagi etaklarini qoqib, mahbubi yoyib yuborgan sochlarini o'rib-tuzatarkan, ammo o'rnidan qo'zg'almaydi. Rustamning qo'llarini ushlaganicha bir nimalar degisi kelar, yigitning yana nimalarnidir pichirlashini, sevgisini ochiqroq izhor aylashini kutardi. Asqar bir qadam jiladi-da, qaytadi, qiz uning yelkasiga nozlanib bosh qo'yadi. Oshiq suyuklisini bag'ridan bo'shatgisi, suyuklining ham haroratli, sehrli og'ushdan uzilgisi kelmaydi. Nihoyat u boshini orqaga tashlaydi-da, qo'llarini Asqarning kaftlariga qo'yadi.

Ahdingiz chinmi? so'raydi nechanchidir bora. Menga uylansangiz, keyin afsuslanmaysizmi? Har doim shunaqa yaxshi bo'lasizmi? Urub-so'kib, ko'z yoshimni selob qilmaysizmi?

Asqar javoban qizni qanoatlantirib, o'z navbatida u ham savol aylaydi:

O'qishga kirib qolsam, kutasizmi, ota-onalaringiz zo'rlashsa, boshqaga tegib ketmaysizmi?..

Xayrlashayotganlarida Risolat qo'ynidan bir to'rg'am non chiqarib Asqarga tutadi.

Cho'ntagingizga solvoling, bemahalda ins-jinslardan saqlaydi. Duolardan o'qib yuring, tayinB-lardi u.

\* \* \*

O'shanda o'tlig' o'pichlaru erkalanish-erkalashlarning asl ishq dalolatlari ekanligiga ikkisining ham shak-shubhalari yo'q edi. (O, o'smirlikning qizg'in mavsumi sodda, beg'ubor, hali qalblar, orzu, e'tiqodlar pand yemagan palla!..). Ikkalasi ham peshonalariga boshqa bir yigit yo qiz bitilishi mumkinligini tasavvurlariga sig'dirisholmas, bu haqda umuman o'ylamasdilar ham. Ularning nazarida muhabbat bashariyat sayyorasining mehvari, undan ulug'roq tuyg'u, undan qudratliroq kuch, sevishganlar lafzidan qat'iyroq ont, oshufta dillar orasidagi ko'rinmas ipdan-da pishiq, mustahkam rishta yo'q edi. Faqat va yolg'iz Asqarniki bo'lishiga Risolatning imoni komil edi. U onam meni tushunadi, xohlaganimga beradi, deb ishonardi. Otasi qattiqqo'l bo'lsayam, mehribon edi, qiz padari buzrukvorining ana shu fazilatidan umidvor edi.

Keyinroq terakzorda kechgan oyli va oysiz ko'p oqshomlar, o'sha dildan o'chmas lahzalardagi hech kimga aytib bo'lmaydigan dil izhorlari, yurakni ko'krak qafasini yorib chiqqudek potirlatadigan g'o'r hayajonlar, bolalarcha sarxushliklar, a'zoi badanni lovullatib yuboradigan qaynoq bo'salar yodiga kelsa, yuzlari guldek qizarib, ko'zlarini qayoqqa olib qochishni, o'zini qayerga yashirishni bilmay qolardi. Baxtiga, Rustam, garchi o'sha "gaplar", "hodisalar"dan qisman, farazan xabardor bo'lsa-da, o'tmishni kovlashtirib, juvonning bag'rini ezib, jarohatini yangilamas, qancha yillar ortda qolib ketgan nomatlub voqealarni yuziga solmasdi. Ayol erining mana shu mardona fe'li uchun ham unga o'la-o'lguncha vafodor, sodiq tanmahram bo'lishga rozi edi. Ehtimolki, Rustam soddadil Risolatning "Ha, yoshlik ekan-da..." deb yuborishidan hadiksirab mavzuni qo'zg'ashdan o'zini tiyardi. Chunki Asqarni eslasa Rustamning ichini rashk kemira boshlardi. Lekin Risolat yigitning otini ham atamas (endi nima foydasi ham bor?), u haqda biron munosabat bilan gap ochilgan chog'da ham tilidan umr yo'ldoshini shubhalantiradigan so'z chiqib ketishidan ehtiyotlanib, muloqot oqimini tezroq boshqa o'zanga burib yuborish payida turardi. Sirasini aytganda, qiz ham "xo'p" deyishga deb qo'yib, urushqoq, janjalkash inson bilan qanday murosa qilarkinman, deb ko'p xavotirlanuvdi. Keyin bilsa, "bezori"ning tezligi, jizzakiligi oriyatchanligidan, ammo o'zi dili ochiq, samimiy, ham odamga juda rahmdil ekan, ro'zg'orparvarligi ham joyida edi. Qolaversa, nikoh, chimildiq degan sirli mo'jizalarning kuyov-kelin qalbida iliqlik uyg'otishi ham haqiqat-da, Risolat o'z-o'zidan qaylig'iga ko'ngil qo'ya bordi. Asqar bilan munosabatlarini o'ylasa, xuddi eriga xiyonat qilayotganday uyalib, titrab ketardi. Bolalik beboshlik, deganlari to'g'ri ekan, biz ham tentak ekanmiz, degan fikr ongida sekin-asta qat'iylashdi. Risolat o'shanda Asqarning qaltis ish sodir etmaganidan, shunday ish sodir etishga urinmaganidan (u o'sha mahalda yigitni juda-juda yaxshi ko'rar,

unga inonar va ra'yini qaytarolmay qolishi mumkin edi) suyunar, ayni vaqtda shuuridan balki, o'sha ish... yuz berganida otasi Asqarning sovcilariga xo'p deyishga majbur bo'larmidi... degan fikr siynasini simillatib o'tardi. U Asqarni xotirlasa, hamon bir entikib qo'yardi.

Asqar to'g'risida orqavorotdan har xil gaplar kelib turardi. Yigit o'qishni bitirib, Toshkentda qoldi, qaytib Risolat bilan qiziqmaganiga qiz ichidan zil ketardi. Xat-ku yozmaydi, loaqal birontasidan biron marta salom yo'llamaganiga chidolmas, unga o'ptirganlari, qiz bola bo'laturib, yaxshi ko'rishini oshkora aytganlariga pushaymonlar yerdi. Albatta, Asqar har qancha duoi salom bilan maktub yo'llaganda ham unga javob bitolmas, zero u qat'iyatsiz, hazilakam oshiqdan aslo umidvor ham emas edi-yu, uning bir vaqtlar yuragiga cho'g' solgan so'zlari (axir, ishq savdosi bobida ko'z ochib ko'rgani edi, unga betoqatlik bilan talpinardi buni tan olmay iloji yo'q) chin bo'lganligiga qanoat hosil qilishni xohlardi. Ayniqsa, yigitning aynan Risolatlar ko'chasiidagi chiroy-chimmati o'rtachagina qizni dabdaba-yu, martaba bilan Toshkentga olib ketgani juda oshib tushdi. Atay, menga o'chashib shunday qildi, deb, anchagacha ich-etini yeb yurdi (ayol nasli baribir kuykanakligiga boradi-da).

Risolat farzandlari turmasligi yo tug'ilmasdan nobud bo'lishiga, ikki nomurodga bir ovunch, suyanch tilab kechalari Ollohga yolvorganlari, ohu nolalarining ijovatsizligiga yoshlik, g'o'rlikdagi nodonlik orqasida Asqar bilan nojoiz, nosha'riy hatti-harakatlarga izn berishgani nomahramning jismi-tani badaniga, labi yuzlariga tekkani, ya'ni gunohga yo'l qo'yilgani sababmasmik deb xomushlanar, lekin o'zini ham, yigitni ham aybdor sanagisi kelmasdi. Chunki hayotida diydorlashuvga u qadar oshiqib talpinishlar, unday hayajonli oqshomlar, lazzatbaxsh sirlashuvlar, havoyi fazolar bag'rida, yashil orzular belanchagida totli xayol surishlar qayta takrorlanmagandi.

#### IV

O'shanda Risolatning taqdiri o'zi kutganday bo'lib chiqmadi. Asqar poytaxtdagi dorilfununga o'qishga kirdi. Qizga esa sovcilar kela boshladi. O'sha mahallarda ular kunora xat yozishardi. (Eh, sog'inch, muhabbat, orziqishlar izhoriga to'la u ishqnomalar qayerlarda sarg'ayib, loylarga qorishib, kimlarning tandiriga tutantiriq bo'lib ketdiykin?..) Risolat navbatdagi maktublaridan birida holatni bayon etdi, ko'ngli notinchligini yashirib o'tirmadi, terakzordagi ahdlashuvlarni eslatdi. Asqar zudlik bilan qishloqqa yetib kelib, maktabda tarixdan dars beradigan amakisi orqali uyidagilarni oyoqqa turg'azdi. Amaki masalaning nozik va muhimligini, yigit qizga so'z berib qo'rganini yaxshilab tushuntirgach, ota-ona o'g'illarining xayoli bo'linishini o'ylab ijirganishsa-da, tavakkal qilib ko'rishdan boshqa chora yo'qligini anglab yetishdi. Lekin sovcilar dastlabki tashriflaridayoq simyog'ochga urilgan varrakday shalvirab qaytishdi Halim qori ularga ham keskin rad javobini berdi, maslahatlashib ko'raylikchi, deb ham o'tirmadi.

Uzoq shaharda o'qiyotgan bolaga qiz berolmaymiz, o'qishini tugatguncha esa o'qizamizni saqlab turolmaymiz, harbiyga ham bormagan xom ekan, ovora bo'lishning hojati yo'q, dedi iltijo, o'tinchga o'rin qoldirmay.

Har qalay ko'cha ko'rib qolgan Asqar izzat-nafsi, g'ururi toptalganday og'rindi, ayniqsa "xom" degan tamg'a ko'ksiga nashtarday sanchildi. Kimsan, mamlakatdagi eng obro'li oliygohning talabasi-ya?! U Risolat va otasidan qattiq ranjidi, birini tushunmaganlikda, qoloq qorilikda, ikkinchisini tushuntirilmaganlikda, muhabbatlarini himoya qilolmaganlikda aybladi. Amaki uni yoniga o'tqazib, obdan tasalli berdi.

Asli shu ishga meniyam royim yo'q edi, jiyan. Chunki sen ilmni ketidan quvishing zarur, uylansang, kelinni Toshkentga olib ketishing kerak. Qayerda, qanday yashaysizlar? Bu yoqda qolsa, otang aytganday, fikring chalg'iydi. Bolalik bo'lsang, ularni boqish kerak. Unda o'qishni, orzu-niyatlarni yig'ishtirib qo'yib, ishlashga to'g'ri keladi. Yoshsan, hali senga yaxshi qizlar uchraydi. Albatta, Risolat yomon qizmas, o'zim o'qitganman, bilaman, lekin unashmasa, nima choramiz bor, zo'rlik qilolmaymiz-ku, jiyanim. Risolatdanam o'pkalab yurmagin, qiz bola otasiga, Halim qoriday o'jar, koj odamga qanday men falonchiga tegaman deb ayta oladi? Bu bizning udumlarimizgayam, musulmonchilikkayam to'g'ri kelmaydi. Keyin, ular o'ta taqvodor, zamon bilan hisoblashishmaydi. Xil kelishimiz ham qiyin. Seniyam diqqat qip qo'yishlari mumkin. Menimcha, Halim qori shu taraflariniyam o'ylab yo'q degan...

Asqarning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. Xayolan baribir Risolatni kechirmadi, u bilan uchrashishga ham imkon izlamay, Toshkentga jo'navordi. Sirasini aytganda, amakisi bashorat qilganday, poytaxtda, institutlarda fason yuradigan har-har qizlarni ko'rib ko'nglida andak taraddudlanish, yangi hayajonlar tug'ilgan bo'lishi ham ehtimoldan uzoq emasdi. Balki, "Risolatni qo'shni qishloqlik bir qavmlarining o'g'liga berisharmish" degan "mish-mish" yigit qalbini batamom vayronu hafsalasini mutlaqo pir qilgandir. "Nima bo'lsayam, men burchimni bajardim, lafzimda turdim", deb o'zini oqlardi u.

\* \* \*

Asqar ko'rishishni tilamay juftakni rostlaganini eshitgan Risolatning dili ham qattiq og'ridi, axir, ish uzil-kesil bir yoqli bo'lgani yo'q, chora axtarish, urinib ko'rish mumkin edi-ku! Kattaroq kishilarni, oqsoqollarni o'rta qo'yishsa, otasi ularning yuzidan o'tolmay mayli deb yuborarmidi...

Qizning avvalo qiblagohining o'jar va cho'rkesarligi, andishasizligi uchun uzr so'rab, hali butunlay umid uzishga erta ekanligiga ishora qilib bitgan dilmomasi dom-daraksiz ketdi. Xatim yetib bormadimikin deb, yana yozdi. Bu gal ham Asqardan na javob keldi, na salom. Risolat shundan so'ng uydan chiqmay qo'ydi, hovlida ham boshini xam qilib yurar, tuzuk-quruq ovqat yemas, "ha" yoki "yo'q"dan boshqa so'z aytmasdi. Ona "shamiyon qayirar chol"ini bir amallab ko'ndirib, qizni dalaga chiqardi. Uning tundligi butkul yozilmasa-da, ruhiyati hamon tushkun bo'lsa-da, har holda ruxsoriga pushti rang yugurib qoldi. Dilorom bilan dardlashib sal yengil tortardi. Dugonasi esa Rustamdan, uning beparvoligidan nolirdi.

Qiz bola bo'la turib, sen yaxshi ko'rsangu, muhabbatningni qadriga yetishmasa, odamga yomon alam qilarkan. Behis, to'nka!.. derdi u charos ko'zlariga yosh olib.

Shoshmay tur, hali orqangdan shunday yugursin, tasalli berardi Risolat. Bir xilgi yigitlar shunaqa bo'ladi o'zi qiz bolaning moyilligini sezsa, darrov dimog'i ishib, burni ko'tariladi, lekin keyin shunaqa muloyim-mushukka aylanishadiki... U men turmushga chiqib ketsam, Rustamning Diloromga ko'ngil qo'yishdan boshqa iloji qolmaydi, deb o'ylardi.

Bunaqa bo'lishiga hech ko'zim yetmaydi.

Mana, meni aytdi deysan...

Diloromning ham yosh tingan ko'zlariga nur ina boshlaydi.

Ammo Risolat hamon gohi-gohi kechalari to'lg'onib, uxlolmas, padari buzrukvorining o'z dilbandi, yolg'iz qiziga qilgan adolatsizligi, ayniqsa, Asqarning qat'iyatsizligi (bevafoqligi, subutsizligi deyishga tili bormasdi) uni iztirobga solardi. Demak, sevgisi shunchaki havas, va'dalari yolg'on ekan-da. Yo Toshkentda birontasiga ilakishib qoldimikin?..

Birdan-bir sirdoshi Dilorom edi. Yuragi siqilsa, uning yupatishlari bilan ovunardi. Rustamdan sovchi kelgach, ikki dugona o'rtasiga ham ola mushuk oraladi. Garchi Risolat Rustamni suymasligini, otasi yigitning elchilarini noumid qaytarganini bilsa-da, endi Diloromning qalbida pinhona g'ayirlik, hasadga o'xshash bir nima nish urgan edi. Endi jigar-bag'ri xun Risolat undan ham o'zini tortar, o'z yog'iga o'zi qovrilar, o'zi savol berib, o'zi javob qaytarar, jumboqni yolg'iz muhokama qilardi. Balki Asqar mendan qattiq xafadir, hamma aybni menga to'nkab yurgandir, yo ehtimol, uyam qiynalayotgandir, kuyinayotgandir der, rostdan ham Asqarda ko'ngli borligini aytgani botinolmagani uchun o'zini koyir (ammo ota qizidan bir og'iz so'rab qo'yishni ham lozim ko'rmadi-ku), shuncha yil birga yashagan odamiga so'zini o'tkazolmagan volidasidan ham o'kinar (padar bu haqda gap ochgan ayolini siltab tashlagan edi), muhabbat deb o'ylagani sarob bo'lib chiqqanidan qayg'uiga botardi. Boshiga har xil mudhish xayollar kelardi. Toshqin yuz berganida, dastlab "mana, dilimdagi ish amalga oshadigan, ikki o't orasida kuyib-tutashdan, hamma azob-uqubatdan bir yo'la qutuladigan bo'ldim", degan fikr ongidan "lip" etib o'tdi. Lekin Dilorom jonining boricha "Riso-la-a-at!.." deya chinqirganida birdan xushiga kelganday, tetiklandi, ovoz chiqqan tarafga qarab, dugonasi sari talpindi. Suv tezlik bilan ko'payib, qizning o'zini tutish uchun boshini oldinga cho'zib, daryo tubiga mahkam bosishga harakat qilayotgan oyoqlarini surib ketdi. Keyin...

V

Voqea ertakni eslatib yuborardi, ammo haqiqat edi. ("Orzumandlar" da mana shu ayanchli lavhalar nazarda tutilgan edi). Mayning oxirlari, kunlar issiq, ayni g'o'zaga ishlov beradigan mavsum edi. O'sha kuni o'nga yaqin qiz-juvon Qoradaryo yaqinidagi o'n yetti gektarlik paykaldagi chopiq qilishayotgandi. Ular orasida Risolat bilan Dilorom ham bor edi. Qomati bejirim, qishloq qizlariga noxos favqulodda oppoq, xumor ko'zli Risolat qalin sochlarini har doimgiday boshiga chambarak qilib olgan. Avvaldan oftob tig'ida, chang-g'uborlar ichida qarsillatib ketmon chopib yuradigan, bo'yi Risolatnikidan pastroq Dilorom bug'doy rang, qotmagina, harakatlari shahdam, qarashlari chaqnoq. Umuman u qishloq xonadoniga kelinbop qiz edi. Tushlikdan keyin ikki-uchtadan bo'lib, soya-salqinga o'zlarini urishdi. Risolat bilan Diloromni esa dala oftobida olovlangan tanalarini sovutib, charchoqni (diqqatchilikni ham) yozish istagi daryo bo'yiga yetakladi. Ular alanglashib, atrofda zog' yo'qligiga ishonch hosil etishgach, o'zan ichida oltimish-etmish qadamlar chamasi yurib, kuchsizgina shaldirab oqayotgan, ikki tomoni quruq toshloq suv yoqasida, avvaldan ma'lum pakkada to'xtashdi. Odam bo'yidan pastroq yulg'un va boshqa o'simliklar panasiga cho'nqaygancha, ro'mol, ko'ylaklarini yechib, buta shoxiga tashlashdi, so'ng tunlik harir kiyimlarida, boshlarini engashtirgan ko'yi oppoq to'shlarini oqimga berib, oyoqlarida suvni bolalarcha chapillatishgancha, ohista suza ketishdi. Suvning yuzasi, chuqur bo'lmagani uchun tagi ham u qadar sovuq emas, shu bois badanga bag'oyat xush yoqardi. Vujudlariga orom inib, farog'at bahriga cho'mishgan bo'y qizlar tashvish, hadikdan holi edi. Odatda, bunaqa issiq pallada qishloqdan ancha olis bu pastqamlikka chumoli ham o'rmalimasdi. Qizlar qo'lida besh-oltita zog'ora baliq chizilgan tol chiviqni salanglatgancha o'rmondan qaytayotgan Rustamni ko'rishmas, umuman, bironing nazari tushishi mumkinligini o'ylamas edilar. Yigit qandaydir qiqir-qiqirmi eshitib, qadamini sekinlatdi. Tevarakka olazarak boqdi va nigohiga birdan daryo o'rtasidagi yulg'inga ilingan qizil, yashil liboslar ilashdi. Bo'ydoqlarga xos jo'shqin qiziqish bilan o'sha yoqqa tikildi. Qizlarning chug'ur-chug'uri dudmol aks-sado kabi eshitalardi, o'zlari pinhon edi. Ovoz egalari, ayniqsa bittasi juda yaqin tuyuldi yigitga. U sohilda u yoqdan-bu yoqqa yurib, nihoyat cho'milayotganlar ora-sira ko'rinadigan joyni topdi-da, o'zini qari, bukri tol orqasiga olib, astoydil kuzatmoqqa tutindi. Qizlar o'n yetti-o'n sakkiz yosh balog'at davrining ta'rifga sig'mas o'tli hissiyotlari og'ushida ehtiros, zavq ila bir-birlarini bosishar, yuzlariga suv sochishar, qiyqirishar, xandon otib kulishardi. Ular dunyoni, hatto bag'ritosh bevafoqlarning sitamlarini ham tamomila unutishgan edi. Suv parillarining kimligini allaqachon fahmlagan Rustam yuragi gup-gup urib, shirin, lazzatli xayollarga berildi, "pistirma" sidan boshini ko'tarmay, ichki ko'ylak, lozimlari bilan laqqa baliqday suzayotganlarni tomosha qilib, hushi og'ib turaverdi, uning uchun vaqt to'xtab qolganday edi. "Qani endi hozir Diloromning o'rnida men bo'lsam... o'ylardi u lablari yoyilib. Ha, qaysar qori, qizini menday yigitga bermadi-ya... Risolatning otasidan yozg'irdi u. Men uni yelkamdamas, kaftimda olib yurardim, kaftimda. Shunday jazirama issiqlarda dalada ishlatib qo'ymasdi qoraytirib, hovlimizni gullatib yursa hisob edi. Hali uyam afsuslanadi..." Bir payt Rustamning qulog'iga allaqanday vahimali guldirash kirib, dam sayin kuchayib, yaqinlasha boshladi. Tovush zamin ostidan kelayotganday edi. Biroq yer tinch, silkinayotgani yo'q. Yigit tegrasiga, ko'kka jalangladi. Osmon boyagiday musaffo, quyosh charaqlab, haroratini beomon purkardi. Shu asnoda qizlarning qo'rqinch, tahluka ichidagi qiyqirig'i yangradi. Rustam qarasa, ne ko'z bilan ko'rsinki, tip-tiniq suv bir lahzada qorayib, ko'payib borardi. Beshik-beshik to'lqinlar suvning sokin sathini chayqatib, yovuz sharpaday bostirib kelib qolgan edi...

Odatda Qoradaryoning har qanday sho'xligu beboshliklari bu paytgacha barham topgan bo'lardi. Barcha anhoru soylar kabi qadimda Ilamish atalmish bu keksa daryoda ham ko'klamda, olma gulidan keyinroq suv ko'payardi. Rustamning bolaligida esa bu daryoi azim doim limillab, to'lib-toshib oqardi. Sohildagi o'tloqlar gul-gul yashnardi, marzalarga sapchigan yovvoyi favvoralarda quyosh nuri, oy shu'lasi jilva qilardi. Maysa-giyohlardan bir bokira, xushbo'y hid taralardi. Lekin o'qtin-o'qtin daryoning jazavasi tutar, shunaqa kezlarda tunni boshiga ko'taradigan shovqin-suronlardan, jarlarning o'pirilib-shaloplashidan qishloq ahli tahlukaga tushardi.

Xullas, daryo odamlarning yuragiga ko'p qutqu solgan, judayam sho'x, yovqur edi, hech narsani, hech kimni mensimasdi, ayamasdi. Ayniqsa, kunlar isib, Arslonbob tog'larida tosh qotgan muz-qorlar eriy boshlagan, sel-jalalar avj olgan mahallarda daryo ko'pirib, qop-qora bo'tana bo'lib, och qolgan urg'ochi sherdek na'ra tortib oqardi. Rustamning, boshqalarning ham yodida: el-xalq ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib, darvozalari biqinida ko'zlarini yo'lga tikib, quloqlarini ding qilib o'tirishardi. Qishloq faollari, brigadir, hosilotlar otda aylanishib, ularga dalda, tasalli berib yurishardi. Bir necha otliq esa to'xtovsiz daryo bo'yiga borib kelardi. Hamma "Qani, yuklarni ko'taringlar!.." degan buyruqni eshitishdan bezillab, jon hovuchlab turardi. Ancha-muncha botir yigitlar, suvdan qaytmas sho'x-shaddot qizlarning boshiga ham yetgan bu qonxo'r daryo! Kim, qachon, nima sababdan shunday nom qo'ygan, hech kim bilmaydi uning toshqin holatini, jazavali alpozini "Qora xo'ja" deb atashardi. "Qora xo'ja"ning odam "ovlamay" qo'yganiga ancha yillar bo'lgan edi. Bugun nima jin urdi, nega tushov uzdiykin u?..

Qizlar jon holatda quloch otib, qirg'oq sari suzishardi. O'rtadagi toshloqni ham toshqin bosib ulgurgan edi. Rustam shippagini va do'ppisini yechib, har yoqqa tashladi-yu, o'zini daryoga otdi. Oradagi masofa ellik qulochcha bor edi. Suv to'xtovsiz ko'payar, yigit bor kuchini ishga solib qizlar tomon intilar, qizlar esa bu yoqqa talpinishardi. Rustam to'lqinlar uzra, og'zi-burniga kirgan suvni purkab-purkab quloch otarkan, "Qo'rqmanglar, qo'rqmanglar!.." deya baqirib, dalda bermoqchi bo'lardi-yu, hech evini qilolmasdi. Suvdan kalla ko'targisi, bir soniyaB-ni ham boy bergisi kelmasdi. Lekin... shu on toshqin birdan, bir necha barobar avjlanib, hayqirib, Rustamni ham quyiga oqiza boshladi. U o'rkach-o'rkach dolg'alar qurshovida qoldi. Biroq, qoni qaynab, bo'ydoqlik



kuch-quvvati jo'sh urgan yigit o'zini aslo yo'qotmay, qizlarni ko'zdan qochirmaslikka urinib, oqimga qarshi yondamalab borardi. Yana bir necha quloch otsa bas edi ikkalasini ham tutib olgan bo'lardi. Ammo... U qo'l cho'zishga ulgurmasdi suv tag'in bir ko'tarilib, to'lqinlar ko'kka irg'idi.

Qizlar birvarakayiga "Aya-a-a!.." deya qattiq chinqirishdi-yu, jimib ketishdi va ikkisi ham ko'zdan g'oyib bo'ldi. Kuchli sarosimaga tushgan Rustam suv sachramalari qisib qo'yayotgan qovoqlarini yirtguday ochib, yon-atrofnı qidirarkan, besh-olti metr narida siltanib-hilpirayotgan ikki o'rim soch uchlarini ko'rdi. "Bu Risolat!" degan fikr miyasida chaqmoq chaqdi. Yana boshqa tarafga jonsarak ko'z yugurtirib, Diloromni axtardi, biroq, qarasa, haligi sochni ham yo'qotib qo'yadigan (bunday chog'da miya xujayralari yo karaxt bo'lib qoladi yo favqulodda shitob ishlab ketadi). Shu o'yni dilidan kechirib ulgurmay, Parvardigor inoyati bilan gohida ana shunday yovvoyi, bezabon kuchlarda ham shafqat hissi uyg'onib ketishi mumkin chog'i, to'lqin bir surib, Rustamni o'sha ikki o'rim soch yoniga olib borib qo'ydi. Qattiq hamla bilan qo'l uzatgan edi, sochning bir o'rimi barmoqlariga ilashdi. Qo'lini ikki marta aylantirib, sochning qariyb yarmini bilagiga o'rab oldi va zabt bilan o'ziga tortdi. Yana to'lqin yordamga keldi: xushsiz bosh suvdan bir qalqib chiqdi, ammo shu zahoti tag'in cho'ka boshladi. Biroq yigit sochni bilagidan zarracha bo'shatmay, epchillik bilan bir qo'llab suzib, qisman oqim ko'magida Risolatni sudraganicha qirg'oqqa intildi. Albatta, bularning hammasi qisqa muddatda sodir bo'ldi. Sayozlikka yetganida yigitning ham sillasi qurib, holdan toygan, oyoqlaridan mador ketgan, lekin aqli-xushi o'zida edi: suv xo'plagan qiz sho'rlik tezroq silqitib yuborilmasa, ish chatoq. U qolgan butun kuch-quvvatini to'plab, Risolatni bo'yni va tizzalari ostidan ko'tardi-da, ivib og'irlashgan shimi pochalarini shaloplatganicha sohilga yaqinlashdi.

Xayolida panjalarini qimirlatishga ham majoli yo'qday edi. Bilaklarida bo'yiga yetgan, durkungina, zangori ich ko'ylagi badaniga chippa yopishgan sohibjamol ko'zlari yumuq, rangi tamom bo'zargan, lablari yarim ochiq holda, nafas olmay yotardi. O'shanda muskullarida qayerdan, qanday g'olibona qudrat paydo bo'ldi haligacha hayron, Risolatni bir shaxt bilan yelkasi barobar ko'tarib, qirg'oqqa yotqizdi. Keyin o'zi ham tirmalashib chiqib, qizni yonboshlatdi-da, oyoqlarini juftlashtirib, sal ko'tarib bir-ikki siltagan edi, og'zidan suv varaqlab otildi... Risolat sekin ingradi. Yigit o'zini yerga tashladi. So'ng g'ala-g'ovurdan ko'zini ochib, tepasida biri g'azab, biri hayrat bilan tikilib turgan haloyiqni ko'rdi.

Daryo shashtidan bir oz tushgan, lekin yirtqichlar hamlasidan o'lar holatda chopib, xavf-xatardan qutulgan, ammo hamon pishillashi bosilmagan yilqi galasiday bo'g'i q shovullardi.

\* \* \*

Diloromning jasadi ikki kundan keyin Farg'ona kanali to'g'onidan topildi.

Risolat bir hafta deganda tilga kirdi. Shungacha, Diloromning ota-onalari "norasidamiz, ko'zimizning oqu qorasini umriga zomin bo'ldi" deb, Risolatnikilar "bokiramizni badnom etdi" deb, Rustamlar eshigining turumini buzishayozdi. Shungacha Rustam tuman ichki ishlar bo'limining hibsxonasida tergov berib yotdi. Uning gaplariga hatto yaqinlari ham ishonmasdi. Keyin Halim qori ham, Risolat ham Rustam oldida burchli ekanliklarini angladilar. Yigit jasorati to'g'risida birovga maqtanmasdi, lekin ich-ichidan qizga o'zini ko'rsatib qo'yganidan, o'zidan mamnun edi. Baribir sharmandali hol yuz berdi degan fikrni kallasidan chiqarib yuborolmayotgan Halim qori bu "shov-shuv"ning hademay yurtga tarqab ulgurishidan hadiklanib, o'zi oraga kishi qo'ydi. Ishqilib, yigit niyatidan qaytib qolmaganmikin?.. "Shundoq mard o'g'longa qizimizni qo'shqo'llab tutganimiz bo'lsin..." Rustam esankirab, o'zini yo'qotayozdi. Risolatni qutqarib oldim, endi uni menga berishadi, degan iddao xayoliga ham kelmagan edi. Yana bir hol uni g'oyat ajablantirdi. Risolatlar tarafdin elchi kelgan kundanmi yo undan sal avvalroqmi, u fe'lida qandaydir o'zgarish yuz berayotgani sipo tortib, muloyimlashib borayotganini, odamlarga yaxshi nazar bilan qaray boshlaganini his etardi.

Risolat ham endi onasining so'zlariga yerga boqib, sukut bilan javob berdi. Asqar hanuz suvga cho'kkan toshday nom-nishonsiz, Rustam esa foydaga qolgan jonining xaloskori, egasi edi. Qolaversa, endi uning kimga tegishi baribirday edi, illo, hamonki bir kimsa bilan hayotini bog'lashi shart ekan, rostmi-yolg'on sevgisini ochiq aytib yurgan, so'zidan qaytmaydiganga o'xshayotgan, yuragi botir shu Rustam ma'qul emasmi? Toshqin voqeasi esiga tushsa, qiz qirg'oqda yarim yalang'och, behayolarday yotgan holatini, Rustamning uni o'sha alpozda suvdan ko'tarib chiqayotganini ko'z oldiga keltirib, o'z-o'zidan uyali ketar va dilida yigitga nisbatan andak iliqlik paydo bo'layotganday, jismi-tani endi unga tegishliday tuyulardi. Ammo Diloromni o'ylab, darhol turfa mulohazalarni boshidan haydashga urinar, bevaqt zavol topgan dugonasiga yuragi achishib (nima bo'lsayam, yaxshi qiz edi), kipriklariga nam siza boshlardi. Lekin endi u yo'q... Rahmatlini Rustam baribir yaxshi ko'rmasdiyam-ku... Biroq yaqin hamdami, qismatdoshidan judolik tufayli, Asqarning ko'ngli qattiqligi, vafosizligi sababli yuragiga xursandchilik, o'yin-kulgi sig'masdi. Onasiga dil yorib, bir necha bor to'yni paysalga soldi. Ammo qalliq qiz vaqtni cho'zishga qancha uringan sari, berahm kunlar yelvizakday vizillab, uni dam sayin rag'batsiz vasl tuniga yaqinlashtirib borardi.

\* \* \*

Nihoyat, vaji korson, bahonalarga ham asos qolmadi. To'y kuni belgilandi. Risolat xonasiga qamalib, to'yib-to'yib yig'lar, ammo nega obidiyda qilayotganini o'zi ham chuqur anglamasdi, faqat ko'ngli to'lib, ko'zlaridan beixtiyor quyulayotgan yoshni to'xtata olmasdi.

To'y ham o'tdi. Risolat Rustam bilan qovushdi.

Toshqin va to'y hodisalari bir-biriga bog'lanib, tildan tilga ko'chib, rivoyat tarzida qo'shib-chatilib, qo'shni qishloqlarga yoyildi. Voqea ishtirokchilarini biladigan, yaqindan taniydiganlar ham har gal yangi tafsilotlar bilan boyitib gapirib yurishdi. Xususan, kino san'atiga, adabiyotga qiziqishi nihoyatda kuchli, mol boqqani borganda ham qo'ltig'idan muqovalari titilib ketgan semiz-semiz kitobni qo'yamaydigan, hatto o'tni ham xirgoyi bilan o'radigan Salim Rustamning qahramonlik dostonini to'ylarda, turli davralarda maroq bilan aytib berardi. Hikoya davomida jo'shib, hayajonlanganidan ba'zida og'zidan tupuklar sachrab ketsa ham parvoyiga keltirmas, oxirida qoyil qolganini pisanda qilishni unutmasdi. Shunday paytlarda, ayniqsa, Shavkat g'oyatda hayratga tushib, lab-lunjini yig'ishtirolmay iljayar, dam kipriklarini pirpiratib jiddiy tortar, g'ururlanganidan turgan yerida bo'yi o'sib ketayotganday sezilar, tog'asiga nisbatan mehr-muhabbati o'sha asov daryoday oshib-toshib borardi. Bolakay hovliqib uyga kelardi-da, ovoza bo'lgan fojeiy hodisani yanada batafsilroq eshitish maqsadida tog'asi yo kelinayasiga turg'alar, biroq Rustam: "...bir payt qaragam, suv ko'payib, qizlar oqib keta boshlashdi, shartta o'zimni tashladim. Bittasini ushlolmadim, ikkinchisini sochi qo'limga kirib qoldi, bu mana shu kelinayang edi", deb kift qoqardi. Kelinoyisi esa uning uchun qiyomatga aylanayozgan dahshatli toshqinni tutilib-to'lqinlanib so'zlar, Rustamning dovyurakligini alohida ta'kidlab, yigit kishi shunaqa bo'lishi kerak, deb xulosa yasardi, o'zicha tayoqning bir uchini kimgadir to'g'rilab.

Bu mavzu goho-goho er-xotinning o'zaro suhbatlarida ham tilga olib turilardi. Ko'pincha Risolat eslardi.

Dilorom sizni judayam yaxshi ko'rardi. Qizlardan birontasi tegishib, "o'sha bezori, janjalkashni nimasi yoqadi o'zi senga?" desa bormi, bechorani burdalab qo'yay derdi. Yugurgannikimas, buyurganniki deb...

Rahmatli alomat qiz edi, lekin bilardingiz, men sizni...

Men shunchaki qiziqsangiz kerak, deb o'ylardim.

Chunki siz... Rustam birdan duduqlanadi va gapni buradi. Siz so'zlarimga tuzukroq quloq solmasdingiz.

O'zingizam tomdan tarasha tashlaganday, "menga tegasan..."dan boshlardingiz-da, odamni kapalagini uchirib.

Yuragimda borini, gapni indallosini aytardim-da. Men shoir yo artist bo'lmasam, qoshing unaqa, ko'zing bunaqa degan maqtovlarni o'xshatolmasam. Bunaqa yuzaki xushomadlarga tilim aylanmaydi. Menga yoqardingiz, birdan-bir maqsadim sizga uylanish edi, vassalom. Niyatim xolis ekan, mana, Xudo ishimni o'ngladi, bandalarga ko'rsatib qo'ydi.

Rostdanam allakimlar bilan mushtlashib yurishingizni ko'pchilik yomon olardi-da.

Mana, mushtlashmayam qo'ydim.

Ha-ya. Meniyam tuyib turarmikin, deb qo'rqardim. To'ydan keyin anchagacha hadiksirab yurganman.

Rustam Risolatga o'pkali nigohini tikadi.

Opqoching-a...

Rost-da, keyin o'zgardingiz-da.

Siz sababli...

Men hech o'ylamovdim...

Shuning uchun xalq sho'xdan qo'rqma, pismiqlan qo'rq deydi-da.

Risolat yana marhuma dugonasiga qaytadi.

Dilorom ham yashashi kerak edi. Men o'zimni uning ruhi oldida aybdorday his qilaman. Axir siz meni emas, uni qutqarishingiz ham mumkin edi-da, juvonning dilida Rustam atayin meni tutishga harakat qilgan bo'lsa kerak, degan gumon ham yo'q emas edi.

Sizni menmas, o'zingizni sochlaringiz qutqargan mana shu uzun sochlaringiz. Rustam ayolining qimtilgan tizzalari uzra ko'z-ko'zlanib yotgan zulfi anbarafshonini o'ynamoqqa tutinadi, uning parishon uchlarini burniga tutadi. Aslida meniyam orqangizdan yugurtirgan mana shu sochlar edi.

Risolat xijolatomuz jilmayadi.

Sochim uzun bo'lmaganda orqamdan yugurmasmidingiz? sinovchan so'raydi u.

Harqalay, ko'zim dastlab sochingizga tushib qiziqib qolganman. Keyin ko'rsam, yuzingiz ham, hamma joyingiz chiroyli, kelishgan ekan.

Risolat birdan yengil seskanadi. Uylari orqasidagi terakzorda ilk bor aytilgan va quloqlariga judayam yoqimli eshitilgan so'zlar jaranglaganday tuyuladi.

Endi oshirvordingiz, bu gapni shoirlaram sizchalik kelishtirolmasa kerak. - Ayol jiddiylashadi. Mayli, buni qo'ying, men baribir Diloromga achinaman.

Ha, o'shanda uni yo'qotib qo'ydim, deydi ma'yus tortgan Rustam boshini likillatib. Xayol uning ko'z oldiga o'sha mudhish manzarani keltiradi. Menimcha, Diloromni girdob tagiga tortib ketuvdi, uni qayoqdan izlashniyam bilmasdim. Keyin, birdaniga ikki kishini tutish ham qiyinidi, ikkalanglar ikki tarafda edinglar. Umas, bumas, taqdir bu, Risolat, Olloning irodasi. Rahmatli hur ketdi, joyi jannatda bo'lsin.

Ishqilib, u dunyoda men bilan yulishib yurmasmikin, deydi Risolat hazilmi-chin tarzda.

Qo'rqmang, qo'l siltaydi Rustam, o'zim kafillikka o'taman. Undan kechirim so'raymiz. Parvardigor inoq er-xotinlarni yaxshi ko'rarmish, shuning uchun bizni o'zi yorlaqaydi.

## VI

Shunday qilib, ular sokin, halovatli va ancha-muncha tashvishli, og'ir-engil kunlarni boshdan o'tkazdilar va umrlari yo'lidagi kutilmagan, notanish bir bekatga, to'g'rirog'i, chorrahaga yetib to'xtadilar. Endi ular shu manzilda ulovdan tushib, xayrlashmoqlari va boshlarini xam qilganicha boshqa-boshqa tomonga qarab yurmoqlari lozim edi. Shuncha zamon bir o'rinda bir-birlarining nafaslarini tuyib, hidu bo'ylaridan bahra, badan haroratlaridan quvvat olib kelgan juftlikning bir olmaning pallasiday ikkiga bo'linib ketishi, borsa qaytmas so'qmoqdan noma'lum yoqlarga ravona bo'lishi og'ir savdo edi. Lekin ular o'zaro tinch sulh asosida shunday bitimga kelishdi.

Sizdan mingdan-ming roziman, siz ham mendan rozi bo'ling-a, Rustam aka, dedi Risolat yerga boqib. Uning nam mijjalarini yashirish uchun bosh egganini payqash qiyin emas edi. Bilib-bilmay yaxshi-yomon gapirib, dilingizni og'ritgan bo'lsam...

Risolat!.. gapni bo'ladi Rustam betoqatlanib.

Ko'nglingizdagiday yostiqdosh bo'lolmagan bo'lsam...

Risolat, menga qarang...

Yana, dorilbaqoda menga teskari qarab, boshqasi bilan ketib qolmang, deyman-da...

Rustamga juvonning nozik qochirimli hazili ham botmadi.

Iljirab yotgan yaraga tuz sepushning nima hojati bor, Risolat?

Rustam ayolni, iyagidan ko'tarib o'ziga qaratmoqqa, uning yuzlariga hamdardlik bilan tikilmoqqa, ko'zyoshlarini artib qo'yomoqqa chog'landi, ammo endi unga qo'l tekkizishga haddi yo'qdek ikkilanib, shashtidan qaytdi. Vo, ajab, nega endi?.. Axir u yigirma yildan beri o'ziniki edi-ku, nainki shuncha muddat butun vujud-tanalari bir bo'lgan odamlar endi begonalarday, bir-biridan butunlay yiroqlashib ketishsa? Halitdan-a?.. Nahotki bundan keyin ko'cha-ko'yda ro'para kelib qolishsayam tuzukroq hol-ahvol so'rashishga o'zlarini haqsiz bilishib, shunchaki ko'z tanishlarday, quruqqina salomlashib o'taverishsa? Ishqilib, qiyomat diydor bo'lib yurishmasa, bas...

Rustam yaxshilikchasi judolashuv urush-janjal, "qo'ydim-chiqdim" bilan ora ochdi qilishga nisbatan qiyinligini, azobligini angladi.

Xullas, bir necha yildan buyon xavotir bilan kutilayotgan "qora" kun nihoyat yetib kelgan edi. Mana, ertaga Risolat akasinikiga ketadi. Xo'sh, keyin-chi?.. Rustam g'or og'ziday yutaman deb turgan, o'lik chiqqan uyday noxush hujraga, xarobaday fayzsiz hovliga orqasidan birov surganday kalla suqishini, o'choq oldida kul titkilab, qozon qaynatib, idish-tovoq yuvib, hafsalasizlik bilan kovshanib o'tirishini, bir kishilik o'rin to'shab, sovuq ko'rpa ichida g'ujanak bo'lib, tiq etsa derazaga bo'ylab yotishini ko'z oldiga keltirdi-yu, etlari jimirlashib ketdi. O'zini chalg'itish uchun rejalar tuza boshladi, avvalo Risolatga bir nimalar tuhfa qilishni

ko'ngliga tugdi: tozaroq matodan ko'ylak, boshiga solgani yupqa ro'mol mo'ljalladi.

Baliq me'daga tekkan. Anchadan beri osh yemadik, ertaga bozorga borib qo'y go'shti opkelsam... dedi tushlik ustida. Bugun ariqdagi jela, savatlarni qaragam, daryoga ertaroq tushib, ko'proq baliq tutsam...

Risolat xomush, u o'z xayollari bilan andarmon edi. "Maylingiz..." deb qo'ya qoldi. Keyin birdan esiga kelganday, ertaroq qaytarsiz, dedi iltimos ohangida. Ichida g'alati bir holat yuz berayotganday yurak siqilishimi, zerikishmi, o'zi ham aniq bilmasdi. Nazarida toqatsizlanayotganga, besaranjom bo'layotganga o'xshardi. Aslida juvoning qalbida ham yolg'izlikdan cho'chish tuyg'usi g'imirlay boshlagandi.

Rustam xotining avzoini sezdi-yu, sezmaganga oldi, nimayam desin, sababi ayon-ku. Uning o'zi ham bu kunni qanday kechiktirish va tong ottirish g'amida edi. Unga qolsa, shu oqshom va tunning juda uzoq cho'zilishini xohlardi. Ichida shaytonmi, bir nima bugun Risolatga mehr-muruvvat ko'rsatmagan durust, aksincha, uni sovutadigan, ko'nglini cho'ktiradigan ishlar qilish zarur, derdi. Lekin bunday amallarni o'ylab topolmasdi. Aslida Rustam o'zi haqida Risolatning yomon taassurot bilan ketishini sirayam xushlamasdi. U xotirasi qatlarini titkilab, ayolining o'tgan yillar davomidagi nomai a'moli orasidan ixlosni qaytaradigan, bezdiradigan xatti-harakatlar, muomalalarni axtarishga tushdi. Bir galgi arazlashganlarini esladi. Unda onasi hayot edi. Bir o'tirishda kayf ulfati bilan aytishib qoldi. U befahm, befarosat "Risolatni otasiga qizingizni bir o'limdan saqladim, endi u meniki, deb shart qo'ygansan, yo'qsa u pixini yorgan ziqna chol senga arzandasining tirnog'iniyam ravo ko'rmasidi, agar qutqarib olgan bo'lmaganingda Risolat senga bilaginiyam ushlatmasidi", deb jig'iga tegdi, yana, "ayol kishining eridan ichi chiqmasayam bo'g'oz bo'lishi gumon", deb uni kamsitdi. Rustam chidab turolmay, dahanaki jangga uncha uquvi, sabri yo'q edi, qo'l otib yubordi. Chiyralgan, to'qmoqday musht zalvori bir bosqonning zarbidan kam emas edi, hamshisha kursi-mursi bilan beton polga gursillab yiqildi, burnidan sharqirab qon ketdi. Favg'o kuchaydi, sheriklar Rustamni hazil ko'tarmaslikda, qo'pollikda ayblashdi.

Hazilmas bu! Hazil bunaqa bo'lmaydi! battar tutaqdi u.

Qisqasi, achchiq-tirsiq bilan tarqalishdi. Rustamning sha'niga "bir chiroyli o'tirishni boplading, doim bir ishkal chiqarmasang, qusuring qonmaydi o'zi, uylanib ham o'pkang bosilmadi. Risolat sen bilan qanday yashayaptiykin...vTk degan ta'nalar yog'ildi. Lekin endi u o'zini og'irlikka oldi, melisaga tushishdan cho'chidi. Uyga kelib, bo'lgan voqeani to'kib soldi. Xotining uni jin kabi ko'zadan qayta chiqishga majbur qilgan xonasalotning malomatiga nisbatan taxminan: "bekorlarni beshtasini aytibdi, o'z ixtiyorim bilan tekkanman sizga, xohishim bo'lmasa, shuncha yil birga yasharmidim..." deyishini kutdi. Harqalay, shunga yaqin so'zlar bilan kayfiyatini ko'tarib, tasalli berishiga ishonuvdi. Risolat "chakki qipsiz-da, urib..." dedi. Fayir oshna Asqarning xolavachchasi edi. Rustamning xayoli shunga ketdi. Yana boshvog'i yechilib, qizishdi.

Demak, o'sha ahmoqning gapi to'g'ri ekan-da, deb yubordi o'zini to'xtatolmay.

Ayol javob qaytarmadi, Rustamga orqasini o'girib yotib oldi. Shundagina xol qo'yganini angladi. Kechirim so'ray deb og'iz juftladi-yu, pastlagan olovni gurillatib yubormay, deb o'zini tiydi, to'g'rirog'i, uzr-ma'zurga g'ururi yo'l bermadi, g'alamis, ichi qora hamtovoqning pichinglari unga qattiq botgan edi. vTkRisolat ertalabgacha hovuridan tushib qoladi", deb o'yladi.

Barvaqt turib, onasining: "Qayoqqa, muncha erta?" kabi savollariga mujmalgina javob aytib ishga jo'nadi. O'sha paytlarda kolxozda yuk mashina minardi. Kechki payt qaytganida hovlida Risolat ko'rinmadi.

Keliningiz qani, aya? so'radi u o'zi xulosa chiqarib qo'ygan bo'lsa ham.

Otasinikiga ketdi. Eringizdan ruxsat olganmisiz, desam, "kechasi kech keldi, erta ketib qopti", dedi. Oralaringdan gap qochgani yo'qmidi? Sanobar opa o'g'liga razm solib tikildi.

Risolatning Rustamdan bejizat bir yoqqa boradigan odati yo'q edi. U yana onasining "hay-hay"lashiga qaramay, tashqariga otildi. Guzardan qovun, tarvuz xarid qildi-da, qaynotasinikiga kirib bordi. Iliq qarshilagan Risolat ichkaridan to'shak olib chiqib, chorpoypadagi yakandoz ustidan soldi, choy keltirdi. Qaynota ham, qaynona ham "nima gap?" deb so'rashmadi. Rustam bir piyola choy ichgach, "Risolatni opketgani keluvdim, bemahalda o'zi qo'rqmasin deb", dedi.

Yo'lda, uyda ham kechagi gap-so'zlardan umuman og'iz ochishmadi.

Undan avvalmi, keyinmi, shunga o'xshash yana bir holat yuz bergan. O'shanda ham Rustamning o'zidan o'tuvdi. Jo'ralarini mehmonga chaqirgandi, ularni kuzatgach, "namuncha yasanib oldingiz?!" deb Risolatni ancha diqqat qilgan. U tanishu begona erkakka, jumladan, erining yaqinlariga durustroq kiyimda ko'rinishni xushlamaydigan o'zbek ayoli hali dunyoga kelmagani, kelishi ham dargumonligini bilmasdi.

O'rtoqlaringizni oldida ro'dapolarday yurishim kerakmidi, ajabladi juvon. U har qanday er xotining o'zgalarga, xususan, og'aynilariga kelishganroq, ko'rkamroq ko'rinishini xohlama kerak, degan tushunchada edi. Ayniqsa, befarzand erkakning boshqalarga qaraganda ham rashkchiroq bo'lishini birov eslatmagandi unga. O'shandan keyin Rustam uyda gap berish, umuman, gap yeyishga chek qo'ygan edi.

## VII

Rustam shoshilmay mash'al tayyorlashga kirishdi. Risolatdan so'ramay, o'zi omborchani tintib-titkilab, eskirgan paxta topib chiqdi. Endi uni koptok shaklida dumaloqlab, sim bilan o'rab-chirmab bog'lash, o'roqni qirrali egovda, so'ng qum-qayroqda o'tkirlash va boshqa kerakli anjomlarni hozirlash kerak edi.

Uning baliq ovini ixtiyor etishdan yana bir muddaosi ko'rpa-to'shak, mayda-chuydalarini tugib-bo'g'ayotgan Risolatning ko'zidan nariroqda turish edi. Ayol zotining buyum, lataga o'chroqligi ma'lum. Mayli, qo'lga kirganini olsin, uydagi bor bisotlarini yig'ishtirib ketsayam mayli. Unga qiyin, sidqidildan qayishadigan bir mehriboni, topib-tutib beradigani yo'q endi, o'zi bir joyda ishlamas... Akasinikida zoriqmayroq o'tirar. Bosh omon bo'lsa, do'ppi masalasi qiyinmas, harqalay, bu erkak-ku. Qolgan-qutgan narsalarni hovliga eltib, darvozaga taxta qoqib, Rossiyagami, Qozog'istongami otlanaversayam bo'ladi endi. O'zi ilgariyariyam (onasi hayotligida) har zamonda, bir nimalarga muhtojlik sezsa, boshqalarga qiziqib, o'sha yoqlarni ko'zlardi-yu, buning iloji yo'qligidan qo'l siltab qo'yaverardi. Keyin, bunga yosh-yosh kuyovlari (kattaroqlari ham) xoriyda yillab badar ketadigan, na yeyishida lazzat, na yashashida ma'no bor kelin-kelinchaklarning o'tin-cho'p, tesha-ketmon yumushlari uchun qo'shni yigitlarga mo'ltirab, bozor-o'charlarda xalta ko'tarib, dalalarda o't yulib, boshqoq terib yurishlaridan, tunlarni sovuq bolishni quchoqlab o'tkazishlaridan, ularning ayrimlari to'g'risidagi har xil maza-bemaza mish-mishlardan xabardor Risolat ko'nmasdi ham.

Qo'ying, kunimiz o'tib turibdi-ku, butun non yemasak, yarimta yermiz, lekin tan-jonimiz sog', ko'nglimiz xotirjam. Xudoga shukr...

Ha, katta-katta yeb-kiyadigan, hadeganda o'zini oynaga solib, unga-bunga ko'zi jalanglab turgan qiz, o'g'illarimiz yo'q-da, agar boshqalarday sep tashvishi, chek olib uy solish g'ami boshini qotirganda, buyam "dunyoning narigi chekasidan bo'lsayam, qanday

qilib bo'lsayam pul topib keling" deb, ikki oyog'ini bir etikka tiqarmidi, deb o'ylardi o'shanda Rustam. Endi uning mo'ltiraydigani, "qo'yning" deydigani yo'q, boshi ochiq, istagan yeriga borishi, joniga tekkuncha yurishi mumkin. Uzoq-uzoqlarda, ish bilan mavril bo'lib, yuragi yozilar... Bir yilmi, ikki yilmi nasibasini terib, besh-o'n tanga pul jamg'arib kelsa, ro'zg'orini yana butlab olaveradi-da. Ungacha ko'nikib ham qolar...

Uning xayolini Risolatning siniq ovozi buzdi.

Rustam aka, manavi pichog'ingizni opketsam, maylimi?

Rustam ilkis bosh ko'tardi. Ayolning qo'lida amirkon qini g'arbga og'ib, tig'i bir qadar o'tmaslashgan quyosh nurida yiltirayotgan pichoq turardi. Tiliga kalima kelmay qoldi. Yarog' otasidan yodgorlik bo'lib, uni sabzi-piyoz to'g'rash, umuman, ro'zg'orga mutlaqo aralashitmasdi. Faqat kechda, yotishdan oldin olma, nok archishgagina (qorasi chiqadi deb, anor, behiga ham solishmasdi) ishlatishib, o'sha zahoti artib-tozalab, yana joyiga uyning to'ri tomonidagi devor burchagiga, qariyb shift ostiga maxsus qoqilgan mixga ilib qo'yishardi. Rustam uni ko'z qorachig'iday asrab-avaylar, dastasi va g'ilofiga har zamonda oshdan keyin tovoqdagi yog' yuqidan surkab, tig'ini qumlab yuvib turardi. Qisqasi, Risolat bu matohning eri uchun naqadar aziz va qimmatligini juda yaxshi bilardi. Balki xotini, yuragingizni sug'urib bering, desa ham Rustam bunchalik esankiramagan bo'lardi. Lekin ayni vaziyatda javdiragan ko'zlarga qarab, bu o'tinchni rad etishning iloji yo'qligini his etdi.

Boshqa hech narsangizga tegmayman, dedi Rustamning dami ichiga tushib ketganini o'zicha baholagan Risolat zo'raki kulimsirab.

Rustam qizarindi.

Mol-dunyo sizdan aylansin, Risolat. Qaniydi o'zimniyam qo'shib olib ketsangiz...

Nihoyat, hamma narsa taxtlandi. Rustam paqirga solyarka quyilgan ikkita yelim shishani soldi, bir qulochcha bosh barmoqday tutakni mash'al simidan o'tkazib yelkasiga ilgan edi, uni kuzatish uchun ayvonga chiqqan Risolat beixtiyor jilmaydi.

Fijimlangan eski shlyapa, mo'ylov kamlik qilyapti Raj Kapurning o'zi bo'lardingiz.

O'zingizam arazlab o'tirgan Radxadan qolishmaysiz, dedi Rustam, lekin shu zahoti в ЪЪЪагазв Ъќ so'zini o'rtaq solganini o'ylab, tilini tishladi. Ko'proq baliq tutsin, deb duo qiling. Bugun ovim yurishadiganga o'xshayapti. Kun issiq, baliqlar kechqurun xo'rak izlashadi. Yana bitta paqir olvolsammikin...

Bittasiyam yetar, ikkitasini ko'tarish ham bor, dedi Risolat.

Rustam endi qancha baliq ushlasayam, ayolga baribir edi. Lekin yana bir kunlik, bir kechalik vakolati qolgan zavjining ko'ngli uchun, "ovingiz baroridan kelsin, faqat ja hayallab ketmang-a, qo'rqaman, yuragim nimagadir g'ash bo'lib turibdi. Havoniyam avzoi bo'lakcharoq", dedi.

Risolatning sust, dilgiriligini Rustam ertaga yuz beradigan ayriliqqa yo'ydi va ta'bi xira tortdi. Shaxti pasaydi, lekin o'zini qo'lga olishi lozimligini anglardi.

Yaxshi, tezroq qaytishga harakat qilaman. Eshikni mahkam berkitvoling. Agar meni chaqirmoqchi bo'lsangiz, chiroqni pastlatib-balandlating. (Bu yerda elektr yo'qligi uchun moychiroq, sham yo' toshfonar ishlatishardi).

U xotinini kuldirish uchun xuddi askarday "chestCH" berdi-da, orqasiga aylanib, shaxdam qadamlar bilan yo'lga tushdi. Bir oz yurgach, sekinlab, ortiga birrov ko'z tashladi. Risolat joyida qaqqayib turar, nazarida u hamon parishon edi. Rostdan, ajralish to'g'risidagi qarorlari to'g'rimikin? Keyin nima bo'ladi? Risolat-ku, akasinikidan panoh topar, xo'sh, Rustam-chi, yo'li ochilmay, Rossiya tarafga borolmasa-chi? Unda u qayerda, kim bilan yashaydi? Turgan gapki, daryo bo'yida, qishloqdan uzoqda tanho o'zi hayot kechirolmaydi. Har qalay, mahalla durust. Shavkat qachondir qishloqqa qaytar. Qaytmasa, Rustamga qiyyin bo'ladi...

\* \* \*

Kun chiqishda, osmonning yer bilan tutashgan qismida kechadan beri aylanayotgan qora bulut quyushlashganday ko'rindi. Farbda esa, quyosh cho'g'day yallig'lanib, pastga og'a boshlagandi. Kun qizarib botsa, qizingni uzat deyдилar, demak, havo ochilib ketadi. Yengil shabada esardi. Rustam qalinroq bir nima kiyib olmapman, deb ko'nglidan o'tkazdi. Egri-bugri so'qmoqdan sinib tushgan shox-shabbalarni qisirlatib tepalab borarkan, chindan ham tezroq qaytish kerak, dedi ichida. Omadi chopib qolsa, yarim soatning nari-berisida paqir to'ladi. Bir chelak baliq o'n-o'n ikki kilo, demak, to'rt-besh mingdan bo'lsa, qirq-ellik ming so'm. Maydalab ko'proqqa pullash ham mumkin, ammo chakanalab o'tirgani vaqti ham, imkoni ham yo'q edi, tushlikka Risolat palov damlashi lozim. Yigirma mingga durustroq bir ko'ylaklik berar, to'rt mingga yarim kilo qo'y go'shti oladi, qo'y go'shti yeyishmaganigayam yillar bo'ldi-yov, guruch uyda bor, yaxshiyamki Qoradaryo o'zanidan har yili besh-olti so'tix qo'riqqa sholi ekib oladi. Endi, ishqilib, o'zangayam xo'jayinlar chiqib qolmasa...

O'sha katta toshqindan keyin Qoradaryo qaytib gupirmadi... Tepada suv ombori qurilgach, yildan-yilga daryoning barakasi, fayzi o'chib borardi. Yuqoridagilarning Orol, Orol deb eslari ketadi, xalqaro anjumanlar o'tkaziladi. Bu yoqlarda ombor, to'g'on qurib, bo'g'ib yotishaversa, dengiz-ko'llarga suv qaydan yetib borsin!

Shu yillarda keng o'zanning u yer-bu yerida shaldirab oqayotgan suv tizza bo'yi, sal chuqurroq, boldirdan keladigan joylar ham bor edi. Baliqni aynan ana shunaqa sayoz shaldiramada ovlash qulay edi.

Rustam yo'l-yo'lakay O'rmoncha ichidan o'tgan ariqning chuqurroq kamari og'ziga, qamishlar orasiga qo'ygan savatlarni ko'tarib qaradi. Bittasidan ikkita shim moybaliq chiqdi, ikkinchisida hech vaqo yo'q edi. Kuni bo'yi izg'ib yuradigan molboqar bolalar, o'smirlar savatlarni ship-shiydam qilib ketishgan bo'lsa kerak. Ha, shumg'iya-zararkunandalar!..

Kun batamom cho'kdi, lekin alvon shafaqlari hali ufqni yallig'lantirib turardi. Risolat bir o'zi, ayol kishi, qo'rqadi. Shuning uchun Rustam daryo bo'yida yashay boshlaganlaridan beri deyarli kechda baliq ovlamas, hatto mahalladagi gap-gashtaklar, ulfatchiliklarga ham qo'shilmadi. Aslini olganda yozda tarkibida в ЪЪЪв Ъќ harfi yo'q oylarda baliq yeyish tavsiya etilmaydi va urchish mavsumlarida ularni ovlash ham ta'qiqlanadi. Lekin bu qoida va qonunlarni biror marta, istisno tariqasida chetlab o'tsa hech narsa qilmas. Bozorda qishin-yozin baliq uzilmaydi-ku. Dolzarbda aqcha topishning boshqa chorasi bo'lmasa...

\* \* \*

Rustam zumrasha bolalar oyog'i kamroq yetib boradigan narigi sohilga yaqin shaldiramalarda baliq ko'proq bo'lishini tusmollab, o'rtadagi toshloq va kechuvlardan o'tib, qadamini jadallatardi. Mo'ljalidagi joylardan biri shaldirama shitob oqadigan muyulishda poyabzalini yechib, boshqa mayda-chuydalar bilan pakana, tarvaygan yulg'un yoniga qo'ydi. Oyog'iga yelim shippakni ildi.

Dumaloqlangan paxtaga solyarka quyib, gugurt chaqdi, so'ng kulbalari tomonga qaradi. Masofa salkam bir chaqirim bo'lsa-da, uy ancha tepalikdaligi va orada baland dov-daraxt yo'qligi bois g'ira-shirada ham xiyla aniq ko'zga tashlanardi. Risolat chiroqni,

toshfonarnimi yoqibdi. Lekin hali atrofga tun qora choyshabini butunlay yozib ulgurmagani uchunmi, lampa xiragina miltillab ko'rinar, bu holatda ko'tarib-pastlatilganini yaxshi ilg'ash qiyinga o'xshardi.

Rustam shimi pochasin tizzasidan yuqoriroqqacha shimarib suvga oyoq soldi. Suv g'oyat huzurbaxsh edi. Mash'alaning temir tayog'ini qiyshaytirib, yorug'i soyga tushadigan qilib, toshloqqa qoqdi. Paqirni uning yoniga o'rnatirgach, bir qo'lga tarashaday qotirilgan non solingan mayda to'rli maxsus xaltani, ikkinchisiga o'roqni oldi. Boldirni ham ko'mib-ko'mmaydigan tiniq shaldirama ostidagi katta-kichik oq, qora, kulrang, nosrang toshlar yolqin shu'lasida yarqirab, titrab-tebranar, bosganda yoqimli g'ijirlardi. Hamma yerda, barcha sohada yolg'iz odamning ishi qiyin-da. Hozir Rustamning qavatida yana bir kishi bo'lganda, u mash'ala bilan paqirni ko'tarib, yonida yo qirg'oq bo'ylab bir-ikki qadam oldinroqda boraverar, Rustam esa bir qo'lida xo'rakli xaltani suvga pishib-pishib, uning hidiga kela boshlagan baliqlarni ikkinchi qo'lidagi o'roqning uchi bilan asta urib, sanchib, chelakka tashlab ketaverardi. Bir o'zi unday qilolmaydi. Idish bilan mash'alani jildirib-jildirib turish kerak.

Barcha jondorlar ichida hidni uzoqdan sezishda baliqqa yetadigani yo'qdir-ov. Rustam to'r xaltani solib, bir necha lahz turdi xolos, bir suyam, undan maydaroq shim, oq amurlar lapanglab kelib, nonni yulqilay boshladi. Rustam o'roqni ko'tardi-yu tinib qoldi, jonivorlarning xalqachasimon dahanlarida shoshqaloqlik bilan xo'rakni tishlab-tortqilashayotganini, ularning alanga yog'dusida yaltirayotgan silliq tanasi, nozik harakatlarini bir pas zavq bilan tomosha qilib turdi. Odamiyat tabiat mo'jizalaridan biri, shunday beozor, jonon mavjudotni ham shafqatsizlarcha tutib, berahmlik bilan chopib-to'g'rab, jizg'anagini chiqarib qovurib, jig'ildoniga uradi-ya. Insondan vahshiy, qahri qattiq maxluq bo'lmasa kerak... Xo'sh, o'zlari-chi, Rustamboy? Boshqalar-ku o'z yo'lga, axir, sen shu begunoh, beozor himoyasizlarni qo'riqlashing, har xil kushandalardan, bandai ofatkashlardan muhofaza qilib, asrab-avaylashing kerak emasmi?.. To'g'ri, ammo Olloh bu luqmai halollarni suyakli, aziz qullari uchun shifobaxsh taom sifatida vujudga keltirgan ekan-da. Ular yeb turilmasa, daryo, dengizlarga sig'may ketadi, keyin o'lib sasiydi. Parvardigor nafaqat baliqlarni, yer yuzidagi ayrim taqiqlangan, nohalol hisoblanganlardan tashqari jamiki ne'matlarni bashar farzandining nafsi-manfa'atiga shafe, tobe yaratgan. Xo'sh, zoti oliy shuncha marhamatu muruvvatlar evaziga, minnatdorligiga nima qaytaradi? Nima qaytarishi kerak? Taqvo va odob, mo'minlik, besh vaqt namoz va yana bir necha farz amal. Afsuski bandai beandoza, beparhezlar shugina vazifalarni ham yolchitishmaydi. Hatto, mutlaqo zahmatu riyoza, fursatu mablag' talab etmaydigan, aksincha, o'ziga faqat naf keltiruvchi, jannatga kirishiga ishonchli yorliq ahamiyatidagi halollik, insof, diyonat, odamiylik kabi oddiy bandalik, ummatlik burchlariga ham rioya qilmaydilar, bil'aks, bunday shukrona va oqilona amallar o'rniga teskari ishlar buzg'unchilik, g'ayirlik, poraxo'rlik, qotillik, dilozorlik, fahsh va boshqa ta'qiqlangan yumushlar bilan hech tap tortmay shug'ullanib, o'zlariga berilajak ajr va umrni qisqartiradilar-da, birovlar tutib qolishga urinsalar, etaklarini jahl bilan silkib, jahannam sari oshiqadilar. Nojoiz xatti-harakatlar, amallarga sarflangan vaqtlar nafaqat behuda, bexislat, balki koni ziyon, koni uvol, koni zavolligini, zinhor-bazinhor chin umr sanog'iga qo'shilmasligini anglamas g'ofillar kabi ish tutadilar.

Rustam yuqoriga tomon jilib-jilib, mash'ala va paqirni siljitib-siljitib, o'roqlab yigirmatacha baliq tutganda rosmana qorong'i tushib, harorat xiyla pasaydi, suv sovudi, negadir baliqlar ham kamaydi. Bu sodda, mo'min jonivorlar ham ancha mug'ombir, ustagar bo'lib qolishganmi, cho'qilab qochib-cho'qilab qochib, uch-to'rtta kulcha nonni paqqos tushirishdi. Rustam bir baliqqa o'roq yo sanchqi urdi deguncha sheriklari yashin tezligida tum-taraqay bo'lib ketishardi. Rustam shu qadar silliq, qo'l-oyoqsiz maxluqotlarning xavf tug'ilgan zahoti o'qday uchib qochishi, ayniqsa pahlavon inson ham evini qilolmaydigan kuchli, shitob oqimda ham yuqoriga qarab bemalol, chaqqon suza olishlaridan hayratlanardi. To'r xaltani suvga odatdagidan uzoqroq solib turar, baliqlarning avval maydalari, keyin yiriklari bitta-ikkita bo'lib kela boshlashardi. Aftidan endi qornini ancha to'yg'azib, nafsi orom olganlari, chalaroq tig' yeganlari qaytib kelmas, chamasi ular boshqalarni ham qurolli "yov"dan ogoh etishardi. Hademay baliq butunlay siyraklashdi, yiriklari deyarli ko'rinish bermay qo'ydi. Jajji-mittilari hadiksirabgina yaqinlashardi-da, yana birdan duvullab "quyon"ni urishardi. Paqir to'lay deb qoluvdi, har qalay, bugun ish yomonmas, lekin Risolatning bir o'zini tashlab kelgani yaxshi bo'lmadi, yuragi qinidan chiqay deb o'tirgandir...

## VIII

Shaldirama ovozi sal balandlaganday tuyuldi. Rustam buni atrofda har xil sas-sadolar o'chganidan deb o'yladi. Ittifoqo shishaday tiniq, yaltiroq suv yuzi xiralashib, ko'payayotganini payqadi-yu, ko'ngliga vahima o'rmladi: nahotki?..

U apil-tapil toshloq-o'zanga chiqib quloq soldi va yer ostidan kelayotgan qo'rqinchli guldirashni eshitdi. Ha, bu shiddatli tus olayotgan oqimning ovozi edi. Rustam mash'alani, yelim shishalarni irg'itdi-da, zarur narsalarni yig'ishtirib, orqa-oldiga qaramay zipilladi. Uylari ro'parasidan ancha yuqorilab ketgan edi. U yo'lga qiyaxoniga soldi. Shippak shapillab g'ashiga tegar, tez yurishga xalaqit berardi, uni ham yechib otdi. Sohilgacha yana uchta shaldirama bor, har birining oralig'i sakson-yuz qadam kelardi, oraliqlar esa toshloqlardan iborat. Rustam har qancha yalangoyoq yurishga o'rgangan bo'lsa-da, shitob odim otganda qirrali toshlar oyog'iga botar, goho yulg'un yo boshqa butalarning butoqli novdalari yuzini timdalar, lekin u og'rig'u achishishlarga parvo qilmay, yugurishda davom etardi. Goho chuqurga munkib, arang o'zini tutib qolardi.

Suvning shovqini tobora ko'tarilardi. Bu balo qayoqdan keldiykin? Axir, yigirma yildan beri bunday hodisa yuz bermagandi-ku. To'g'ri, katta qor yoqqan, ba'zi seryog'in yillari chapazak olma pishig'ida daryo sal hovliqib qo'pongardi, ammo bu darajaga yetmasdi. Ombor ochilib ketsa, viloyat yetti gaz suv tagida qolarmish, degan yurakka g'ulg'ula soluvchi "mish-mish"lar ham ancha paysal topgan, xalq xotirjamroq yashay boshlagan edi. Yo, suv to'planishi me'yorida ortib ketib, yengillatish uchun to'g'onni ozroq ochishdimikin? Suvning sovuqligiga qaraganda shunaqaga o'xshardi. Ishqilib, "Qora xo'ja" bo'lmasin...

Rustamning fikri-yodi shaldiramalardan tezroq o'tib olishda edi. Qorong'ida qadamni bemo'ljal tashlar, toshloqda yugurish qiyin edi, toshlarning bir-birini ezib g'ijirlashi yoqimsiz eshitalardi. Vaqtning uchqur oti odatdagidan ham jadal yelayotganday, yo'l esa qisqarmayotganday tuyulardi. Nihoyat, dastlabki shaldiramaga yetib, uning ancha kengayganini ko'rdi. Tabiiyki, o'zan ham chuqurlashgan edi, suv tizzadan tepaga chiqdi. Rustam chelak va o'roq tutgan qo'llarini ko'tarib, shaldiramadan o'tdi, endi suv to'piqqa yetgan toshzordan yana chopira-chupir qilib sura ketdi. Tovonlari ostidan tirqirayotgan suv bo'yni, betlariga sachrardi. Og'irlashgan shimining muzday pochalarini shaloplab, iligiga tegib sovqottirar va tez yurishga halal berardi. Paqir, o'roqni bir qo'lga olib, ikkinchi qo'li bilan yo'l-yo'lakay kamarini, shimining tugmalarini yechdi, hakkalab, qoqilib-suqilib avval bir oyog'ini, keyin ikkinchisini chiqarib oldi, yengil tortgan matoni suv bir yamlab yutdi-qo'ydi.

Endi suvning shovqini baralla eshitila boshladi. Rustam hansirab-pishillab, kuchining boricha chopar, ikki ko'zi uylari tomonda, lekin chiroqning shu'lasini miltirab, arang ko'rinar. Nazarida Risolat lampa piligini to'xtovsiz pastlatib-balandlatayotganday edi. Bechorani o'takasi yorilmasaydi, deb xavotirlanardi. U xotinini yolg'iz qoldirib, ovga tushganiga afsuslanardi. Suv ko'z oldida oshib-toshib, pishqirib tursa, bunaqa halokatni bir bor boshdan kechirgan ayol qo'rqmaydimi, qo'rqadi-da. Toshqin ham bugunga

qarab turgan ekan-a. Shuncha yillardan beri odamlar, ekinzorlar, dov-daraxtlarga o'zini tillo ko'rsatib, o'zani yuqida jimgina jildirayotgan daryo yana bir kun, bir kecha sabr qilsa, keyin qancha qutursayam mayliydi. Uzog'i bilan bir soatda Rustam lash-lushlarini yig'ishtirib, idish to'la o'ljasini ortmoqlab chiqib ketgan bo'lardi. Yo bu ishi Ollohga xush kelmadimikin?.. Risolatni ko'nglini ko'tarib kuzatay devdi-da. Qo'y go'shtiga osh damlashni mo'ljallab, o'z amakisi, Risolatning akasini ertaga peshinga taklif etib qo'yishuvdi, osh ustida ularga o'z kelishuvlarini, ya'ni yaxshilik bilan ro'zg'orlarini bo'lishmoqchi ekanliklarini bildirib, fotiha berishlarini so'rashmoqchi edi...

Keyingi shaldirama yanada tarvayib, ikki tarafdagi toshloqni ham to'la egallagan edi. Rustam endi sonidan suv kechib borardi. Besh-olti kilo og'irlikdagi chelak bilan shitob harakatlanish mushkul edi. Rustam baliqning ham, boshqa mayda-chuydalarning ham bahridan kechish darkorligini angladi.

\* \* \*

Sohilga yuz ellik qadamcha qolgan, o'rtada yana bir shaldirama (endi u shaldirama ham emas) bo'lib, bu masofani hozirgi vaziyatda kamida o'n besh-yigirma daqiqada bosib o'tish mumkin edi. Suv endi toshloqda ham boldirga chiqqan, yugurish sur'ati tobora susayar, ammo Rustam mardona odimlar bilan ilgarilardi.

"Rustam aka-a-a!.." degan qiyqiriq keldi. Tashqariga chiqib, chiroqni u yoqdan-bu yoqqa tebratib ishora berayotgan besaramjon Risolatning jussasi elas-elas ko'zga chalindi. Qichqiriq dam o'tmay takrorlandi.

Bor-yap-ma-a-an!.. ovozinig boricha javob qaytardi Rustam entikib. Lekin Risolat eshitmadi chog'i, chaqirishda davom etardi. Tanasi vazminlashib, qadami sekinlashib borayotgan Rustam xotining ovozidan, sergaklanib, jon-jahdi bilan olg'a intila boshladi. Miyasida esa "u vahimada qoldi" degan birgina fikr, fikr bilan birga boshi ham aylanardi. Vujudining yarmidan tepasi qizib, peshonasi, yuzlaridan tepchiyotgan terlar suv sachramalariga qo'shilib ko'zlarini achishtirardi. Suvning sovuqligini tanasining pastki qismi borgan sayin aniqroq sezar, ayniqsa, shilpillagan kalta ishton soniga chippa yopishib, etini junjiktirardi. Ishqilib, oxirgi shaldirama-kechuvdan o'tib olsa bo'lgani. U yog'i hech qancha emas, ammo ungacha ham ancha yo'l, ancha muddat bor edi. "Rustam aka-a-a!.." degan hayqiriq esa tobora aniqroq, tobora vahimali, tobora tashvishli va iztirobli yangrardi. Risolatning qattiq xavotirlanayotgani, toqatsizlanib uy oldida u yoqdan-bu yoqqa zir yugurayotgani, nima qilishini bilmay, Rustamni chaqirayotgani loaqal shu chorlovi, nidosi bilan unga dalda, madad bo'lishga tirishayotgani ayon edi. "Kelyap-ma-an, kelyap-ma-a-an!.." deya o'zicha qattiq sado berardi Rustam, ammo hansiroq bilan qorishiq, hadik, tahluka zalvori ostida, daryo shovqini ichida qolgan tovushi o'zi o'ylagan darajada kuchli, baland emas, borini ham shamol etakka kunbotarga uchirib ketayotgandi.

\* \* \*

Nihoyat, uchinchi, so'nggi kechuvga ham yetdi, endi u yerda shaldirama o'zan mavjudligini faqat ikki tomonda suvdan uchlari chiqib turgan, arang ko'zga ilashayotgan yulg'un shoxlaridan taxmin qilish mumkin edi, xolos. Qoramtir va quyuq suv hammayoqda teng, limillab, chinakam toshqinga aylanayotgandi. U kuchayib, odamni tebratadigan, suradigan miqyosga yetgan, RusB-tam endi gavdasini oldinga engashtirib, butun vaznini oyoqlariga solib, qo'llarini baland ko'targanicha, qorni bilan suvni yorib, panjalarini chimdib bosib, olg'a siljirdi. Shunda ham oyoqlari mo'ljaldan o'zga yerga tushardi. Suv quymichdan ham oshgan edi. Rustam endi qancha shitob harakat qilmoqchi bo'lgan sayin gandraklab, qadamlari oldinga emas, yonboshga, oqim yo'nalishi sari ketardi. Suvning sovuqligi jonidan o'ta boshladi. Yuzlari ko'karib, ko'zlari shokosaday kengayib borardi. Yodiga birdan shifokor-tabiblarning bel-oyog'ini, ayniqsa chovini mumkin qadar shamollatmaslik, sovqottirmaslik, hatto zax yerga ham o'tirmaslik to'g'risidagi ogohlantirishlari, shuningdek, bir oyog'ining sovuq suvda pay tortib qolishi esiga tushdi. Bir necha yillar burun radikulit bilan beli, quymichi va oyog'i qattiq og'rib, shifoxonama-shifoxona davo izlab yurganida bir nevropatolog chap tizza ostidan o'tgan yo'g'on pay-tomirga o'nlik shprintsda gidrokortizon dorisini yuborgan, bu tajribaviy muolajaning nafi sezilmaganu ammo keyin o'sha pay har zamonda uvushadigan "hunar" chiqarib, ancha tinkasini quritgan. U holat ancha yillardan so'nggina yo'qolib ketgan edi. Oxirgisi Shohimardonda, Yordan azizning qorli tog'lar bilan tutash vodiysida, sayxonlikda yoyilib, shovullab oqayotgan, tizzadan ham kelmaydigan muzday soyni kechib o'tayotganida yuz bergan. U oyog'ini to'satdan qirrali narsaga urib olganday ihrab, suvga chalqancha yiqilib tushuvdi. O'shanda hamsafar og'aynilarining silab-siyपालashlari bilan akashak degan balodan bir choy qaynatim muddatda xalos bo'lgan. Risolat o'sha hodisadan xabardor edi, unga bekor aytib bergan ekan, hozir u shuni o'ylab tashvishlanayotgandir. Pay tortishish juda be'mani, bedavo narsa. Oyog'ing birdan ishlamay, kesak bo'lib, har qanday og'riqdan ham bemaza, yaramas bir nima vujudingni zirqiratib, chimillata boshlaydi, o'zingniyam idora etolmay, fikri-zikring uvushgan yeringdan jilmay qo'yadi. Yana o'sha palakat takrorlanmasin-da. Bugun endi uni suvdan ko'tarib olib chiqadigan odam yo'q. Birov xabar topib yetib kelguncha uning jismi qayoqdayu, joni qayoqda bo'ladi yolg'iz Xudo biladi. Ha, ishqilib, eson-omon qirg'oqqa yetib olsin. Bunday toshqinda oyoq pay tortsa, tamom, arzi holingni hech kimga aytolmay, ikki qo'ling boshingda ketaverasan. Dod-voyingni jon zoti yo'q bu makonda kim ham eshitardi?..

IX

Avaylagan ko'zga cho'p tushar. Suv betida xas-xashak, mayda shox-shabbalar oqib, ostida esa qandaydir daraxtlarning to'nkasimon bo'laklari dumalab kelardi. Rustamning tizzasini ko'ziga nimadir qattiq urildi, u chinqirib yubordi, muvozanatini yo'qotdi, to'lqin uni yonboshiga ag'darib tashladi. Tamom, hayot-mamoting bitdi, Rustam!.. Sen noshukrlik kasriga qolding. Olloh sunmagan farzandni deb... Kuning baharnav o'tayatuvi, ko'plar senga havasda, xotiningga gap yo'q edi... Rustamning ongidan nari borsa shunga yaqin mulohazalar kechdi, boshqa o'y boshiga kelib ham ulguradi. Zero, fikri-yodi qazoyi muallaqdan omon qolish, o'zini o'nglab, kuchli to'lqinga qarshi kurashish g'ami, qayg'usi bilan band edi. Rostlanib olish, tik turish, g'ayri-shuuriy ravishda qo'l cho'zib, nimanidir tutamlashga urinardi. Ikki-uch umbaloq oshdi, hayriyatki o'zan uncha chuqur emas edi. Beli, yelkalariga mayinroq nimalardir urilardi. "Yulg'un!.." xayolidan o'tdi, paypasladi, barmoqlariga bir nima ilashdi, jon halpida unga yopishdi, lekin changalidagi narsa uni tutib qololmadi, aksincha u bilan birga ketaverdi. Rustam qo'lidagini tashlab, boshqa bir baloni ushladi, gavdasi aylanib, oyoqlari oqim bilan yengil suza boshladi. "Xudoga shukr..." ko'nglidan o'tkazdi u, hali nima bo'lishi noma'lum, ehtimol, bu bolta tushguncha dam oladigan kundaning quvonchiday bir holdir, lekin Rustam baribir ruhlendi. Cho'kayotgan cho'pga yopishar deganlariday, bunaqa paytda bir parchagina, parday yengil xas ham ofatdan qutulish, jon saqlashga ma'lum bir soniyalarga bo'lsa-da, ilinj uyg'otadi. Ajali yetmasa, chindan ham ana shu cho'p sitalib, hilvirab turgan umr rishtasining uzilmay qolishiga bahona, sabab bo'lishi mumkin.

Ikki qo'llab yulg'unga osilgan Rustam butaning tagrog'idan, yo'g'onroq, baquvvatroq joyidan mahkam changallab, shu asnoda tovonlarini suv tubiga tirab, oyoqlarini yig'moqchi bo'lar, tayoqday qotib qolgan chap buti amriga bo'ysunmasdi, aksincha, chunon qaqshatardiki (xavf-xatar bir oz chekingach, og'riq sezimi kuchaygan edi), Rustam voy-voylash, ingrasdan o'zini tiyolmasdi. Bir amallab sog' oyog'ini yerga qadadi, shikastlangani esa hamon jonsiz, bosishga unamasdi. Muzday suv son-sanoqsiz ignalar kabi badaniga sanchilib, zirillatib azob berar, kaftlari, tirnoqlarining uchigacha bezillar, yulg'un sirg'alib, sidirilib ketadiganday, butani qattiqroq siqimlardi. U shunchaki toshqin bilan emas, ajal bilan olishayotganday sezardi o'zini. Haqiqatda ham shunday edi. Mabodo panjalari yulg'undan chiqib ketsa, bas, quturayotgan to'lqinlar gavdasini chirpiratib, bir nimaga urishi yo girdob qa'riga ulotqirib, cho'ktirib yuborishi turgan gap edi. Shu ahvolda suvning sovug'iga qancha fursat chidashi ham dargumon edi. Rustam bexosdan "Riso-la-a-at!.." deb baqirdi. Zero, shu topda, bu yaqin orada xotinidan o'zga ko'mak so'raydigan kimsa ham yo'q edi. Ayol kishining qo'lidan nimayam kelardi? Baqirib-chaqiradi, yig'lab-siqtaydi... Balki Rustam ayni damda juvondan madad umidida qichqirmagandir, shunchaki uning nomini atab, ovozi eshitib, tasalli topmoqchi va hozircha mavjudligini, shu yaqin-atrofdaligini sezdirib, yana bir kechalik muhlati, vakolati qolgan yostiqdoshining bezovta, xavotirli ko'nglini bir oz xotirjam qilib qo'ymoqchi bo'lgandir. Sirasini aytganda, u jufti halolini nega, qanday maqsadda chaqirganini durustroq idrok etadigan holatda emas edi. Aftidan tahlikali, qaltis vaziyatlarda kattayu kichik, yoshu qari tilidan g'ayri ixtiyoriy ravishda otiladigan "Ona-a-a!.." degan nido o'rniga Rustamning yuragidan iztirobli в ЁRisolatв Ё atamasi portlab chiqqan edi. Bu hayqiriq barcha tomirlaridan sizib kelganday, butun vujudini zirqiratib yubordi. Shovqin bilan omixta shamol "Rustam aka-a-a!.." degan sadoni keltirdi. Ostin-ustun olam titrab ketganday tuyuldi nazarida. Guvlagan, qaldiragan tovush, suv ostidagi tuyqus zarb-dan esankiragan katta-kichik, silliq, qirrali toshlarning sharqiragan saslari shu ikki ismdan boshqa kalomni yaxshi eshittirmas, anglashtirmas edi. Holbuki, oradagi masofa uncha uzoq emas, agar kunduzi bo'lganida ular bir-birlarini bemalol, aniq-tiniq ko'ra olishardi. Og'riq pasayay demas, sovuq esa, aksincha, kuchayar, lekin endi shundoq toshqin yalab, ancha-muncha ko'chirib tushayotgan qirg'oq yoqasidagi kulbaning ko'lankasi, kulba oldida qo'lida chiroq bilan shu tomon nariga intiq moda kabutardek talpinayotgan jonsarak hamyostig'ining yuragiga yaqin, qulog'iga qadrton ovozi, uning yonida tinimsiz hurayotgan Qaytmas, darhaqiqat, Rustamga dalda, kuch bera boshlaganday edi.

Riso-la-a-at!.. qichqiradi u. Bu qiyqiriqda iltijo bilan birga, erkakning ayolga, erning zavjasiga mehri, judolik hadigi, hayotga tashnalik, shuningdek, mardonalik, yupanch berish murodi ham mujassam edi.

Rustam aka-a-a!.. chinqirardi Risolat.

Bu javob-xitoblarda qaqshab-titrayotgan mushfiq, munis juvonning mungli farB-yod-fig'oni, aziz hamdamini yo'qotib qo'yish tahlikasi bilan birga "men vafodoringizman, siz hayotim, borlig'imsiz, sizsiz holim nima kechadi?" degan, mas'uliyatga, xushyorlikka undovchi, tetiklantiruvchi da'vat ham borligini anglash mumkin edi. Faqat Rustam hozir buni mushohada qiladigan vaziyatda emasdi.

Er-xotin bir-birlarini aniq ko'rmasalar-da, bir-biriga intizor, vajohati buzuq tun saltanatiga larza, titroq solayotgan nidolari o'zaro topishib, qo'shilib, hamohang jaranglar, bu jarangning aks-sadosi esa toshqin hayqirig'i bilan aralashib, beshik-beshik to'lqinlar uzra juda keng qamrovda taralardi. Ammo suv shovqini va Qaytmasning bezovta vovullashi bir-biriga mushtoqona intilgan ikki sazoning orasiga tushib, tiniqligiga soya solardi.

Rustam hali-hamon lat yegan oyog'ini suv ostidagi toshloqqa bosolmas, hamon durustroq qimirlatolmas edi. Shunda u taxmin qildiki, tizzaga shikast yetgan paytda, demak, uvushish ham boshlangan, joniga hamon yulg'un ora kirib turardi. Uni qo'yib yuborish, oldinga qadam tashlashni xayolga keltirish ham dushvor edi. Shu ahvolda qachongacha bardosh beradi-yu, keyin nima bo'ladi Rustam buni ham bilmasdi, tasavvur qilolmasdi, miyasida biron-bir jo'yali fikrning o'zi yo'q edi. Qo'llari qanchagacha chidasa, shuncha jon saqlash mumkin edi, xolos. Yaxshiyamki, shu yerda uning baxtiga pishiq-chayir shu butaning borligi, boshqa har qanday o'simlik allaqachon sinib yo ayrilib ketardi-yu, Rustam onasini uchqo'rg'ondan ko'rardi. Balki bu Xudoning mehribonchiligidir. Boshqacha bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Demak, umid chirog'ini puflashga hali erta. Olloh qudratli va rahmdil: xohlasa cho'ktiradi, xohlasa oqizadi, xohlasa omon qoldiradi...

X

Mahalladan ko'mak chaqirish mumkin, lekin Risolat bir chaqirimdan ziyod joydan odam topib qaytguncha sovuqdan tarashaday qotishi yoki qo'llari tolib, yulg'undan chiqib ketishi yo xushini yo'qotishi hech gapmas... Xotini sal nariroqdan "Yordam beringlar!.." deb qiyqirsa-chi? Unda mahalla yopirilib tushsa, bir tutam butaga osilib turgan Rustamning holini ko'rib rosa kulishmaydimi? Ertaga bu gap butun qishloqqa tarqalmaydimi? Har xil mish-mish to'qilib, Asqarning qulog'iga ham chalinsa-chi? .. "O'zini eplolmaydigan landovur Risolatni qanday qutqarib oluvdiyin?.." deb o'ylamaydimi? Bunaqa sharmandalik o'limdan battar-ku, undan ko'ra... Lekin bir mo'jiza ro'y berishini kutib turaverish ham mumkinmas, qandaydir chora izlash, harakat qilish kerak-ku!.. Birdan Rustamning yodiga omborchadagi oltilik sim o'ramasi tushdi, u uzun necha metrliги esida yo'g'u, yuz ellik qadamlar chamasi naridagi shiypondan elektr tortishga mo'ljalangan, har qalay, shu yergacha bemalol yetishi aniq edi. Bir uchini ayvon ustuniga bog'lab, tortib kelinsa, o'shanga osilib, qirg'oqqa chiqib olsa bo'lardi. Buning uchun kuchli bir qo'l zarur. Demak, baribir Risolat Odash polvonga borishi kerak. Polvon uyida bo'lmasa-chi? Unda, boshqa kamida ikkita yigitni... Shunday toshqinda, yana allavaqtda muzday suvga tushgani kim ham jon deb yugurib kelardi. Bir navi unaydigan ham topilar, axir, mahalla izdihomlarida Rustam hamisha hoziru nozir-ku, ammo, shunday bemahalda, zim-ziyo so'qmoqlardan Risolat u yoqqa bir o'zi qanday boradi?.. Aytganday, Qaytmas boru...

Rustamning bir xayoli ishkal oyog'i va qo'llarida edi. Bo'g'inlari zirqirab, nazarida barmoqlari butaning nozik uchiga yaqin kelib qolayotganday, chayir novdaga yanada qattiqroq, jon-jahdi bilan tirmashardi, kaftlariga g'adir-budir tanasi botib, tilib, qonatib yuborganday tuyular, panjalari achishardi.

Shovqin sal susayganday edi, ammo to'lqinlar Rustam bilan o'chakishganday, uning qarshiligini sindirishga jazm qilganday, qornidan zarb va jahd bilan orqaga itarardi.

\* \* \*

Rustam tun chuqurlashgan sari zimistonning yanada quyuqlashishidan cho'chiyotgandi. Suvning to'q rangi kechaning tusi bilan uyg'unlashib borardi. Ko'kda, go'yo to'satdan chiroq yonganday, lop etib sakkiz-o'n kunlik oy ko'rindi va uning nurlari alg'ov-dalg'ov suv yuzasida sakrab-sapchib jilvalana boshladi. Siyohiy bilan oq, zulmat bilan yorug'lik, dag'allik bilan mayinlik, yovvoyi vahshat bilan latif bir ma'sumlik o'zaro uyqashib ketdi, atrof qoraB-yib pastlagan osmon yorishib, birdan darparda kabi tepaga

ko'tarilganday, sohildagi qo'qqaygan uy, qo'lida toshfonar tutgan uzun oq ko'ylakli ayol xiyla ravshan ko'zga tashlandi.

Risola-a-at! qichqirdi Rustam endi uning aniq eshitishiga ishonch hosil qilganday. Juvon pitillab qoldi, ammo chirog' ushlagan odam qorong'ilikdagini yaxshi ilg'amaydi-ku, "Rustam aka-a, qayerda-si-iz?.." deb nido berdi.

Men yaqinda-ma-an!..

Nima bo'ldi-i? Nima qilay?.. Risolat sal xotirjam tortgani tovushidan seziladi, so'zlar chindan ham rosmana tushunarli edi, chunki toshqin shashtidan qayta boshlagandi.

O-yo-g'im u-vu-shib qol-di-i! iloji boricha qattiqroq baqirdi Rustam. Om-bordagi sim-ning bir u-chi-ni us-tun-ga bay-lab, men to-mon-ga tor-tib ke-lish ke-ra-ak! Mahal-la-dan O-dash pol-von-ni ay-tib ke-li-ing! Qayt-mas-ni bosh-la-vo-liing!..

Qirg'oqdagi oq libos g'oyib bo'ldi. Chopqillab ketdi boyaqish, ishqilib, OdashaB-li uyda bo'lsin-da, endi u halloslab yetib tushib, simni bu yerga tortib kelguncha oyog'i, qo'llari chidash bersa, yulg'un sinib yo uzilib ketmasa, bas. Rustam o'zini chalg'itish uchun yana taxminiy hisob-kitobda davom etdi: mahallaga yugurib, o'n daqiqada borsa bo'ladi. Odash polvonni chaqirib, unga voqeani tushuntirib, u tayyorlanib ( bir sidra qo'shimcha kiyim olishi kerak) chiqqunicha, kamida besh-olti minut, xullas, yarim soat ketadi. Lekin hozir kechasi, buning ustiga ayol kishi erkakchalik tez chopolmaydi, demak, ko'proq fursat o'tishiyam mumkin. Mabodo Odashali uyida yo'q bo'lib, boshqalarni, masalan aka-uka Qobil va Qodirlarni qidirishga to'g'ri kelsa-chi? Unda, tamom bo'ldim deyaver, og'ayni. Albatta, ungacha buta yo qo'l ikkisidan biri...

Rustam hamon bir oyoqda jon saqlardi: gavdasi tebranib, muvozanatini yo'qotar, azbaroyi shudli, abjirligidan o'zini arang tutib qolmoqda edi. Uni muqarrar halokatdan omon asrab turgan oyoq va bilaklarining ham muskullari zo'riqib, qotib borayotganini anglardi. Zahira kuch topish zarur edi. Suv shovqini pasaygandan keyin og'riq ham bir qadar yengillaganga o'xshadi. Ikkinchisi bilan jipsB-lashtirish va yerni bosish uchun nosog' oyog'ini asta oldinga tortib ko'rmoqchi bo'ldi, lekin hayhot, u joyida yo'q edi! Esankiragan Rustam beixtiyor siypalab ko'rishni ko'nglidan o'tkazdi, lekin yulg'unni yakka qo'l bilan ushlab turolmayman, deb o'yladi. Demak, oyoq chindan ham uvushib, karaxt bo'lib qolgan. Bu fikr qo'rquv hissini junbishga keltirdi. Hayotning naqadar shirin ne'mat ekanligini balki u umrida ilk bor tuymoqda edi. Yaxshiki, ikkinchi oyog'ida bunday dard yo'q, aks holda...

Rustam boshini ko'tarib sohilga qaradi-yu, ayvon yonida timirskilanayotgan qora kiyimli bir sharpaga ko'zi tushib, og'riqni ham unutdi... Shu payt qarog'lari kengayib ketganini o'zi payqamas edi. Kim bo'ldi u, nima qilib yuribdi?

Risola-at!? chaqirdi asablari taranglashib.

Ho-zi-ir, Rustam aka, ho-zir!..

U yengil tortdi, ammo jahlidan tushmadi, g'ijindi, jon azizligi tuyg'usi endi o'zga hissiyotlarni ikki yonga surib, oldinga yulqinardi. "Haliyam ketmabdi-da. Rosa tolqon yeb, suvga buyuradigan ekan-ku. Shu paytgacha (garchi ko'p vaqt o'tmagan esa-da, bu muddat Rustam uchun xiyla uzoq tuyulgan, nazdida, Risolat hozir yarim yo'lga yetgan bo'lishi kerak edi) nima qildiykin, ivirsib? Shunday dolzarb damda kiyim almashtirishga balo bormidi?.. Bu yoqda men nima ahvoldayu... Baribir xotin kishiligiga borar ekan-da. Yo, gapimni tuzuk uqmovdimikin?.."

Risola-at! baqirdi u yana.

Mana-a, kelyap-m-a-a-n, bir pas chida-ang! Xudo joningizni omon qilsin, ehtiyot bo'lib turing!..

Ovoz yanada tiniq keldi, shamol va to'lqinlar vajohati ham ancha kuchsizlangan edi.

## XI

Sovuq sekin-asta vujudining tepa qismini jiqqa ho'l ko'ylagi chippa yopishgan badanini ham zabt eta boshlagan Rustam junjilib qaltirardi. Endi uy tomonga astoydil tikilarkan, Risolat shu tarafga yurayotganini elas-elas ilg'adi. U qirg'oqdagi zinalardan sekin-asta pastga enib kelardi. Beixtiyor kapalagi uchdi. Nima qilmoqchi bu esini yegan xotin?! Simni o'zi olib kelmoqchimi? Demak, uning buyrug'ini chindanam yaxshi anglamagan ekan. Hozirgi ahvoli ham holva bo'lib qolmasaydi...

Qayting, Risolat, qayti-i-i-ing!

Ayol eshitmadimi, javob bermadi.

Riso-la-a-at!.. joni boricha baqirdi Rustam.

Xavotirlan-ma-ang!

Ayol boshqa gap aytmedi. U allaqachon suvga tushgan, bo'yi pasayib, jussasi kichrayib ko'rinardi. Rustamning xunobi oshdi. Shuncha azob-tashvishga endi buyam ish o'zdirib o'tirmasa go'rgaydi. To'lqin etakka surib ketsa bormi... Hadik vahimaga aylandi, sovuqning dami o'tkirlashdi. Ikkinchi oyoq hamon karaxt. Rustam qon yurishini tezlashtirish uchun harakatlanish kerak, degan qarorga keldi, miyasida shu fikr tug'ilganidan suyunib ketdi. Ko'z o'ngida suv ostida murakkab mashqlar bajaradigan urishqoq yoglar gavdalandi.

Ey Parvardigor, o'zing madad ber, iliklarim, bilaklarimga kuch ato ayla!..

Bir oyoqlab, ikkinchi, g'o'laday jonsiz butni osiltirib, shiddat bilan oqayotgan muzday suv ichida o'tirib turish esa hazil emasdi.

Ammo har qanday ish, mashg'ulot ham avvalida qiyin kechadi. Rustam ohista cho'nqaymoqqa tutindi. Dardmand, boz ustiga uvushgan pay tiz bukish, rostlanishni murakkablashtirsa ham oyoqda har qalay ozgina sezgi uyg'ongan edi. Biroq endi salgina egilishiga og'riq kuchayardi. Rustam oyog'i karaxtlik, akashaklikdan ozod bo'layotganiga quvondi. Demak, sinmagan ekan, shunisigayam shukur. U azobu mashaqqatni pisand etmay, tishini tishiga qo'yib, chala-yarim o'tirib-tura boshladi, lang oyoqning injiqligidan tashqari hanuz bo'sh kelmaslik payida shovqin solayotgan suv shiddati erkin, dadil qimirlashga monelik qilardi.

Rustamning xayoli mashqda-yu, ikki ko'zi xotini-da edi. Risolat masofaning yarmidan o'tgan, simni bir qo'lida tortib, taranglashtirib, ikkinchisida o'ramni yozib, gavdasini ortga tashlagan holda orqachasiga yurib kelardi. Necha yillardan beri yaydoq toshloq bo'lib yotgan o'zanda hozir guvullab oqayotgan suv ayolning beliga chiqqan edi. Risolat bilan birga, unga urilib shashti qaytayotgan, ammo yana andak kuchayayotgan to'lqinning umumiy shovqindan farqlanib turgan norizo, shikoyatomuz ovozi ham yaqinlashib kelardi.

Vaqt o'tishi qanchalik mushkul tuyulmasin, u baribir to'xtab qolmaydi. Vaqt barchaga, butun mavjudotga hukmini o'tkazadigan yagona qudratli kuch, hech kim, hech narsa uni o'z izmiga sololmaydi, uni bir lahza, bir soniyaga ham yurgizmay qo'yolmaydi. U bamisli mana shu toshqin unga g'ov, bo'g'ov solishning aslo iloji yo'q. Vaqt uchun xursandchilikning ham, musibatning ham ahamiyati, qizig'i yo'q, u ko'rinmas yuho hamma narsani komiga yutadi, o'ligu tirikni, xo'lu quruqni hissizlarcha bosib, yanchib, hatlab o'taveradi. Undan shafqatsizroq, undan mehribonroq omil topilmaydi. Odamzodni niyatiga yetkazadigan ham, qabrga yetkazadigan ham vaqt. Ayni daqiqalarda ham u o'z chizig'idan chiqqani, o'z qonuniyatidan chekingani yo'q. Rustamning tizzasiga nimadir qarsillab urilib lat yegan lahzadan, mana, Risolat yoniga yaqinlashguncha u qancha zahmat chekdi, uqubat tortdi,



chinqirib voy-voyladi, jig'ibiyron bo'ldi, ko'nglidan ne-ne xayollar kechmadi, hali yana qancha riyozat, qiyinchilik ko'radi u bilmaydi. Vaqt millari esa aylanaveradi va neki mavjud va muhayyo shodlikni ham, qayg'uni ham nihoyasiga eltib nuqta qo'yadi-da, ortiga o'girilmay, yoniga ham qaramay, yo'lida davom etaveradi. U aslo sekin yurmaydi, yurolmaydi shunday dastur, vazifa yuklangan zimmasiga, hatto hastaxonayu hibsonalarda ham faqat chopadi, yuguradi, oltmish, yetmish yillik umrni va hatto asrlarni ham hash-pash deguncha manzilga, o'tmish, yo'qlik qo'liga uloqtirib tashlaydi. Vaqt tabib, vaqt eng oliy hakam! Asli u tabiblikdan ham, hakamlikdan ham mutlaqo xorijda, u shovqin-suron ham ko'tarmaydi, jimgina, sassizgina ilgariylayveradi va shu asnoda har qanday muammo, tugun o'z-o'zidan yechimini topaveradi xasta tuzaladi yo dunyodan ko'z yumadi, nizolar, ixtiloflar u yoki bu tomon foydasiga hal bo'ladi, kim oromkursidan qulaydi, boshqasi amalga minadi, kim orzusiga yetadi, kimningdir ikki qo'li boshida ketadi... Bu borada faqat bir sinoat narigi dunyoda vaqt qanday kechishini (diniy risolalardagi hayratli, haybatli xabarlardan tashqari) hech kim aniq ayto olmaydi. Bu dorilfano bandalari imkoniyati, ongidan tashqaridagi jarayondir...

Ayni damda esa vaqt Risolatni Rustamning yoniga olib keldi. Xotinining suvga tushayotganini ko'rishi bilan Rustamning g'ayratiga g'ayrat, bardoshiga bardosh qo'shila boshlagan edi. Illo, zaifa zotining ko'magiga muhtojlik qanchalik xijolatli, qanchalik ayanchli hol! (Nochorlik odamni nima kuylarga solmaydi!) Buning ustiga o'sha ko'mak yetib kelguncha yo amalga oshguncha mo'ltirab, qo'l qovushtirib kutmoqqa majbur bo'lish esa bag'oyat malol g'irt sharmisorlikning o'zi! Rustam rafiqasining sharpasi yuragini umid bilan quvvatlantirgani, unda ishonch paydo qilgani, mana shu umid va ishonch uni tetiklantirganini ro'yi-rost tan olgisi kelmasdi. Risolat yaqinlashar ekan, u o'zini bardam, shijoatli ko'rsatishga, yulg'unni barmoqlaridagi so'nggi mador, or-nomus zo'ri bilan arang ushlab turganini, sovuqdan qaltirayotganini, og'riq hamon azob berayotganini sezdirmaslikka tirishardi. Xayolan yana yog'larni eslab, men sovuqmayapman, oyog'im ham og'riyotgani yo'q, deya dilida takrorlardir.

\* \* \*

Mana, ushlang, dedi Risolat simni uzatib. Oydinda uning suv sachragan yuzlari yanada tiniqlashganday, yosharib ketganday ko'rinardi. Sochlarini ixcham turmaklab, ustidan Rustam shu yil erta bahorda tug'ilgan kuniga olib bergan shohi ro'molni o'ragandi. Tolim-tolim qaro zulflari ro'mol tashqarisida qolgan edi. Boshqa mahal bo'lganda yodiga o'sha mash'um, darvoqe, unga Risolatni "in'om" etgan toshqin tushishi mumkin edi. O'z bekasini muqarrar halokatdan asragan xaloskor, tabarruk sochlar haqida er-xotin ko'p gaplashishar, shunday kezda juvon ichki bir mamnuniyat, balki bir oz faxr bilan uzun kokillarini siypalab, o'ynab o'tirardi. Bu sochlar, tabiiyki, ilgarigidan bir oz siyraklashgan, yengillashgan, Risolat anchadan beri ularni orqasiga tashlab yurmay qo'ygan edi.

Rustam o'ng qo'lini yulg'undan bo'shatib, shudgorda o'rmalayotgan qora ilonni eslatuvchi ilang-bilang simga cho'zgan edi, uning uchi to'lqinlar qatida ko'rinmay qoldi Risolat Rustam tutdi degan xayolda qo'yib yuborgan edi. Yaxshiki sim Rustamning sog' boldiriga urildi, u o'ng qo'lida hamon yulg'unni mahkam tutganicha, timirskilab, simni suv yuzasiga chiqardi. Shu asnoda Risolat Rustamga baqamti kelib, uning chap kifti bilan tirsagi o'rtasidan ushladi.

Keling, qo'lingizni ko'taring, dedi u.

Rustam xotiniga suyanib, ikkinchi qo'lini ham yulg'undan ehtiyotkorlik bilan bo'shatdi-da, simga ikki qo'llab qariyb osilib oldi. Juvon erining qo'ltig'iga kirib, o'ng bilagini belidan o'tkazib, mahkam quchoqladi. Rustamning muskullaridagi taranglik bo'shashganday bo'ldi, oriyat haqidagi mulohaza, andishalar o'z-o'zidan chekindi, ikki vujud bir-biriga qapishgan chog'da erkakning tanasiga taft yugurdi, yuziga yaxday suv ham sovutolmagan iliq nafas urildi, ro'mol og'ushidagi zulfi anbarning tanish, xushbo'y hidi dimog'ini, hamiyatini qitiqladi, o'zini bardam his eta boshladi. Endi bu yog'i yengilday, sohilga osongina chiqib olishadiganday tuyuldi. Ikkinchi oyoq ham sal-pal bosishga yarab qolgan edi, ammo tosh qattiqroq botsa, zirqiroq miyagacha chiqib ketardi. Shu ahvolda shafqatsiz dalg'alar bilan yo'l talashish, olishish koni azob edi. Xayriyatki, ular qiyaroq "so'qmoq" solishlari mumkin edi. Nima bo'lganda ham, ayol jinsi yonida har qancha og'rig'u, mashaqqatga chidash kerak, shart! Xotin kishiki, sochda вЂњsochbog'ivЂќ bilan shunday omonsiz toshqinda qutqarishga yetib kelsa-yu, u belda вЂњbelbog'ivЂќ bilan inqilab-sinqillab o'tirsa, uyat-ku. Tishini tishiga mahkam bosishdan o'zga chora yo'q. Oh-voh bilan dard paysal topib, kulfati yengillashib qolmaydi-ku.

## XII

Rustam sim tutgan qo'llarining bir unisini, bir bunisini oldinga o'tkazib, Risolat himoyasi, ko'magida oyoqlarini ham jildirar, ammo juda sekin harakatlanishga to'g'ri kelardi. Boz ustiga suvning zalvori, qarshiligini yengib, ikkovlashib olg'a siljish yanada zahmatli, darg'azab to'lqinlar aro qo'ltiqlab, qo'ltiq ostida qadam bosish esa battar qiyinchilik tug'dirardi. Xotinining yelkasi tagida, unga osilib yurish juda noqulay, noxush edi, uning badanidan inayotgan harorat, uyatdan ancha jonlangan, dadillangan Rustamda alohida-alohida odimlash fikri tug'ildi.

Siz avvalroq yuring, Risol, shunday deb, simni tarang tortib turdi. Risolat u bilan o'rin almashdi.

Rustam bosh chayqadi, u o'zicha ayolini orqadan himoya qilib ketishni ko'zlagandi, lekin ikki odam zambarda yuk tashiganda asosiy salmoq old tarafdagi sherik chekiga tushadi... Hozir ham aynan shunday Risolat suvni yorib, yo'l ochib borishi kerak edi. Uning e'tiroziga qaramay, yana joy almashinishdi. Hartugul, Rustam ancha quvvatlanib, bardamlashib qolgandi. Qora tun cho'yshabini yirtib, qaysar to'lqinlar вЂњyo'lovЂќni qayirib, vaboday toshqin hamlasi, vahmini sindirib, sovuq suv zahrini yutib, achchiq shamol nayzalariga o'mgan tutib intilish qanchalik uqubatli, nechog'lik og'ir bo'lmasin, baribir ilgariylashardi. Falakda oy ularni hayajon bilan kuzatar, vaqt esa xijolatda, taxlikada edi.

Simni mahkam ushlang, Risol, dedi Rustam orqasiga yarim qayrilib.

O'zingizga ehtiyot bo'ling, oyog'ingiz yaxshimi?

Ancha tuzuk. Nimaga bunday qildingiz?

Uyda gaplashamiz.

Qadam-baqadam surilisharkan, Rustamning dili yorishib borar, jizillab achishayotgan qo'llari, lat yegan, qaqshayotgan oyog'iga "yana bir pas chidanglar, bir pasgina..." deya tasalli berar, o'tinar, baland ovozda "kelyapsizmi, Risol, sovuqmayapsizmi?" deb qo'yardi. Ichida o'ziga ham Xudodan kuch-quvvat tilar, zavjai muhataramasini panohida asrashni o'tinardi.

Risolat oyog'i chuqurlikka tushib ketsa yo qirrali toshni bosib olsa, beixtiyor вЂњyo'lovЂќ deb yuborar, Rustam darhol imkoni boricha orqasiga burilib, вЂњnima bo'ldi? вЂќ deb hol so'rar, qattiq xavotirlangani ovozi ohangidan bilinib turardi. Juvon darrov erining ko'nglini tinchitardi-da, вЂњmenga qarayvermay, tezroq yuravering вЂќ, deya undardi. U arg'uvoniy vilyur ko'ylak va safsarrang avra kamzulda edi. Turmak, ro'moldan qochgan xo'l soch tolalari manglayi, yanoqlari uzra silkinib yiltillardi. Rustam

bilan izma-iz borar, boyagidek har zamonda tasodifan voy-voylashini hisobga olmaganda, toshqinning qahridan ham, yurishning mushkulligidan ham shikoyat qilmasdi. Xiyla kuchli, irodali ekan, ko'ngilladi Rustam, ancha-muncha zaifaning bunaqa sinov, bunaqa qiynoqqa dosh berishi mahol.

Shu lahzalarda Risolatning hali mijjalariga ajin yondoshmagan yirik ko'zlariga sinchiklab nazar tashlagan kishi uning zinhor og'rinmayotgani, zorlanmayotgani, aksincha, inson o'z ishidan mamnun chog'larda zohir bo'ladigan shukuh ifodasini ilg'ardi.

\* \* \*

Bu gal vaqt ham o'z qat'iyatidan chekindi uzoq va o'ta zahmatli tuyulgan masofa yo mo'ljalidagi muddatdan ancha tez bosib o'tildi yo kamdan-kam hollardagina rahm-shafqat hislariga yon beradigan fursat chindan-da o'zini panaga tortib, qunishib, qotib turdi. Ha, hamisha muzaffar va g'olib vaqt shu oqshom dunyoning ovloq bir kanorasida oddiygina bandalar, ko'ngillari yarim juftlik tomonidan mag'lub etildi! Nafaqat vaqt, balki bu kecha favqulodda quturgan daryo toshqin ham va yana tahdidli, yurakka qutqu soladigan boshqa yovvoyi kuchlar ham yengildi! Bari, bari mehr, muhabbat huzurida, oqibat, sadoqat qarshisida, jasorat, matonat qoshida bosh egdi! Hardamxayollik, umidsizlik ishonch, jahdu shijoatga musallam bo'ldi!..

Sohilga yaqinlashib qolishganini ko'rgan Rustam simni qo'yib yubordi. Bu yerlar chuqur emas tizzadan xolos, to'lqinlar shiddati ham hamin qadar edi. U to'xtab orqasiga shart o'girildi-da, Risolatni dast ko'tarib oldi, uning ust-boshidan sharsharaday suv quyildi.

U pitirchiladi.

Nima qilyapsiz, uyatsiz kishi, tushiring, oyog'ingiz og'riydi...

Rustamning oyog'i chindan ham, avvalgicha bo'lmasa-da, simillamoqda edi, bundan tashqari uning farazicha Risolat shalabbo kiyimda bir muncha og'irlashgan bo'lishi kerak edi, aksincha, u yengil tuyuldi, "oyog'im yaxshi", dedi u va oldinga dadil intildi. Ko'p yillardan, balki to'y oqshomidan buyon bunaqa huzur-halovatni tuymagan ayol tortishib turgan badanlarining mumday mayinlasha boshlaganini his qildi va erining bo'ynidan gira solib quchoqlaganicha ko'zlarini yumib oldi. Rustam ham, Risolatning o'zi ham uning boshidan ro'moli sidirilib, ikki o'rim uzun sochlarining yarmi suv yuzasida yengil selpinib, erkalanib suzayotganini payqamas edilar. Ikkisi ham o'z xayollari, zavqlari bilan band Rustam muqarrar ajal komidan sog'-salomat chiqqani, Risolatni o'z og'ushida ko'rayotganidan o'zida yo'q, juvon esa, balki zabardast, bahodir yigit qo'ynida, his-hayajonlar girdobida yana jannatiy vasl ma'vosi go'shanga tomon bormoqda, qiz zoti umridagi eng laziz, benazir va betakror onlar nash'u namosini qayta surmoqda edi...

\* \* \*

Daryoning suyri, sayoz joylarini shaloplastib, quruq toshloqqa zina yo'l ostonasiga yetishgach, Rustam haloskorini ehtiyotlik bilan, ohista yerga qo'ydi, ular o'zaro bag'irlashgancha, hamma narsani, hozirgina ro'y bergan mudhish voqealarni ham unutib, bir necha soniya turishdi. Hurishni to'xtatib, zinalardan yugurib tushgan Qaytmas suykali ularni iskar va g'ingshirdi. Dumi gajjak chipor mushuk esa, jar labida, bularga qarab betoqatlik bilan miyovlardi.

Toshqin shovqini endi ikkalasining qulog'iga yoqimli bir musiqaday eshilib, dillariga orom bag'ishlardi go'yo.

Risolat... dedi Rustam butun mehri, quvvatini shu ismga jo aylab.

Yuring endi, tezroq uyga kiraylik, Risolatning ovozi mayin va bir oz horg'in edi.

Pillapoyalardan bir-bir ko'tarilib (hamon oqsoq oyog'ini avaylab bosayotgan Rustam umr hamrohining qo'lini qo'yib yubormasdi), uy sahniga chiqishdi. Suvning salqin shabadasi shu yerga ham baralla urib turardi. Er-xotin titrab ketishdi. Rustam eshikni ochdi. Iliqqina xona ularni panohiga oldi. Risolat ikki qanotli mo'jazgina javonda taxlangan kiyimlar orasidan qalinroqlarini topdi. Bir-birlariga teskari holda, Risolat o'tirib, Rustam tik turgancha ust-boshlarini almashtirishdi. Sovuqni endi sezganday, Rustam battarroq dirillay boshladi. Uning so'zi bilan Risolat tugib qo'yilgan, tugilmagan bor ko'rpa-to'shaklarni (xuddi ilk nikoh kechasidagidek) apil-tapil to'shadi. Rustam qalin, lo'millagan o'rin qatiga o'zini urdi-da, uni yoniga chorladi.

Kelaqoling, sovqotyapman.

Spirit bo'lganda badaningizga surkab, ishqavorardim, bekitgan-sekitgan "anaqa..."laringizdan yo'qmi?

Ha-a, "antaxur" deng, "antaxur"... Bo'lishi kerak, dedi xotining oqilona fikridan jonlangan Rustam. Omborda, bo'sh shishalar saqlanadigan plasmassa yashikda, u o'rnidan tura boshlagan edi, Risolat kafti bilan в Ёњqimirlamangв Ёќ degan ishorani bildirdi.

Men sizchalik sovuq yeganim yo'q, yaxshiroq o'ranib oling, Risolat yelkasiga jun ro'mol tashladi-da, toshfonar bilan tashqari chiqdi, bir oz hayaldan so'ng yorlig'iga "Andijon arog'i" deb yozilgan novcha shishani ijirg'angansimon ko'tarib kirdi.

Rustam cho'kkalab o'tirdi-da, shishaning burama qopqog'ini ochdi. Dilida yarim piyola ichvorsammikin, degan istak g'imirladi-yu, ammo niyatini Risolatga oshkor etgisi kelmadi, bu zormandani xushlamaydigan ayoli shunday paytda ichkilik ko'ngliga siqqanini.., deb noto'g'ri tushunmasin, ranjimasin, dedi.

Avval sizga surkaymiz, dedi u kuch bilan jilmayib. Yechining.

Yo'g'-e, nima deyapsiz? erining ko'zlariga tikildi Risolat.

Siz ham suvda ancha yurdingiz, spirit, o'zingiz aytganday, sovuqni zahrini kesadi. Suvda shabadalagan yomon, odam qattiq kasal bo'lib qolishi mumkin.

Rustamning baribir aytganini qildirishini bilgan Risolat ikkilanardi.

Tezroq!.. buyurdi Rustam jiddiy ohangda.

Xo'p, qaramay turing, dedi juvon va o'rin chetiga omonat cho'nqaydi-da, qo'llarini yonboshidan o'tkazib, hozirgina kiygan havorang pombarxit ko'ylagi, pushtirang tungi libosining orqa etagini qayirib, kuragigacha ko'tardi, keyin bir qo'lini yelkasi osha uzatib, ushlab oldi.

Bo'ldim.

Yosh boladay odob saqlab o'tirgan Rustam unga yuzlandi.

Yotvolmaysizmi? Oyoqlaringizgayam surkaridik.

Yo'q, orqamga surkasak yetadi.

Sal engashing bo'lmasa.

Rustam "antaxur"dan kaftiga to'kdi, o'tkir hid gup etib xonaga taraldi. Risolat bo'sh qo'lida ro'molining uchi bilan og'zi-burnini berkitdi. Rustam aroqni xotining qorday oppoq, marmarday silliq va tiniq beli, kuraklariga surkay boshladi. Badan tarang va issiq edi. "Issiqchannimikin..." degan fikr Rustamning ongidan lip etib o'tdi. Qo'lini Risolatning qo'ltig'i tagidan cho'zayotgan edi, u

This is not registered version of TotalDocConverter

"no'jay xalqaroqshir yo'q beada kisha, deda-da, o'ng anog'ini biqiniga qadab, qimtinib to'sindi.

O'pkangizgayam suykamoqchiydim, dedi Rustam.

E'tiboringiz uchun, o'pka orqa tarafda bo'ladi, e'tiroz bildirdi Risolat. Faqat anatomiyadan yaxshi o'qiganman deb maqtanardingizu...

Rustam kuldi.

Siz ham anatomiyadan yaxshi o'qiganakansiz-da, menga o'xshab, asalim...

Tezroq bo'laqoling suyulmay, spirtni o'zi asosan sizga suykashimiz kerak.

Rustam boyagi taxlitda uch-to'rt qatla kaftlariga v'ehzahri qotilv'ekdan quyib, Risolatning orqasiga obdan, beozor ishqadi.

Juvonning vujudi cho'g'day qizib ketdi.

Bas qiling-ey, dedi u va etagini tushirdi. Yechining.

Bir daqiqadan so'ng Risolat tiz cho'kkanicha, lab-dahanini qimtigan ko'yi, kalta ishtonda muk tushib yotgan erining sovuqdan loladay qizarib, tovuq terisiga o'xshab qolgan etiga kuragi, belu biqinlariga, baquvvat son va boldirlariga aroq surtarkan (og'riqli oyog'i siypalanayotganda Rustam sekin v'ehim-im...v'ek deb qo'yardi), bu jism, bu jussaning unga naqadar yaqin va aziz, yoqimli ekanligini ko'nglidan o'tkazardi. Bir ozdan keyin Rustam o'girilib, chalqanchasiga uzala cho'zildi. Risolat uning qornidan pastiga choyshab yopib, muolajani davom ettirdi. Keng, qabariq o'mrovga, kindik atrofiga, yelka-qo'llarga maB-yin shapalog'i bilan v'ehraddi balov'ekni astoydil, yedirib surkadi. Bad'az tizzalar, boldirlarga o'tdi, oyoqlar osti, tovon, panjalarni ham ola qo'ymay ishqalardi. Rustam ehtirosli, mehrli nigohini xotining bo'g'riqib-qo'pchigan yuzlari, olovli ko'zlaridan uzmas, Risolat unga go'yo e'tibor bermasdi. Oxiri chidolmay kulib yubordi.

Muncha tikilasiz, meni ko'rmaganmisiz?

Hozirgiday holatda ko'rmaganman, dedi Rustam entikib va Risolatning u yer-bu yeriga tegina boshladi.

Shilqimlik qilmay, te-ek yoting! Kap-katta kishini qilig'ini... Yolg'ondakam qovoq uydi ayol. Menam bir joylaringizni chimdib qo'ymay...

Ajoyibsiz-da, Risolat...

Bo'pti, bas, Risolat narigi yondagi ko'rpaga egilgan edi, Rustam uning kiftlaridan quchib, chapdastlik bilan bag'riga tortdi. Juvon qarshilik ko'rsatishga ham ulgurmadi, bir oz tipirladi-yu, jimib, boshini yostiqdoshining ko'ksi bilan yelkasi orasiga qo'ydi. Rustam ustilariga ko'rpa yopdi.

Oy derazadan yana birpas mo'ralab turgach, ko'ngli tinchigan yangaday, kulimsib chetlandi. Endi daryo ham qariyb avvalgi me'yoriga tusha borardi.

PjhPSPrPëP¶PsPS

2007-2009